

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK TEXNIKANI
SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING
O'RNI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: "Boshlang'ich sinf va sport tarbiyaviy
ish" ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi 4 kurs
talabasi **Rahmonova R.**_____

Ilmiy rahbar: "Umumiy pedagogika" kafedrası
o'qituvchisi O.Ergasheva _____

TERMIZ – 2013

BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK TEXNIKANI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING O'RNI

REJA:

KIRISH.

I.BOB. PEDAGOGIK MAHORAT FANINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Pedagogik mahorat fani va uning fan sifatida vujudga kelishi
- 1.2. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish omillari.

II.BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TEXNIKANING SHAKL VA USULLARI

- 2.1. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik mahorat fanini o'qitish shakllari
- 2.2. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda tajriba mashg'ulotlarining o'rni (pedagogik mahorat fani misolida)

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyat yukfangan. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti LA.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'mimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyo- sini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizga yaxshi tasavur qilamiz». Ushbu fikrlardan bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati anglaniladi.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Mustaqillikdan keyin ushbu muammo ko'plab olimlarning, ziyoli ahlining, hatto ota-onalar ning diqqat-e'tiborida bo'ldi. O'qituvchilar uchun zamonaviy, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan metodik va o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratila boshlandi. Lekin bu muammo bo'yicha izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkumi, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning

tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muqarrar. O'qituvchi - O'zbekistonda porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro'-e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart.

O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida qizg'in bayon qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga

nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan boglay olishi lozim..

“Pedagogik mahorat” fanining asosiy maqsadi bo'ljak o'qituvchilarda kasbiy mahorat, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o'qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toptirishdan iboratdir. “Pedagogik mahorat” fani kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirish sirlarini o'rgatadi. Talabalar o'qish va o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko'nikma va malakalar, psixik holatlarni boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratadilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi — ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va munosabatlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Shu bois olamga yangicha ko'z bilan qaraydigan, uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, respublikamiz o'qituvchi — pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir.

Darhaqiqat, Prezidentimiz IA.Karimov ta'kidlaganidek: «Mamlakatimizni bundan keyingi taraqqiyotiga ta'lim tizimini yangilamasdan, uni rivojlantirmasdan, ya'ni mustaqil jamiyatning yangi talablariga va yangicha o'lchovlariga to'la javob beradigan yangi fuqaroni shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi».

Kelgusida o'qituvchi — pedagog ixtisosligini tanlagan har bir mutaxassis talabalarni o'qitayotgani va tarbiyalayotgani uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. U o'zining kasbiy tayyorgarligiga javob berish bilan birga pedagog, o'qituvchi, tarbiyachi, muallim darajasi, huquqiga ega bo'lish uchun juda ko'p izlanishi, buyuk

mutafakkirlarning qoldirgan bebaho ma'rifiy, ma'naviy, axloqiy boyligidan to'lato'kis xabardor bo'lishi hamda undagi tamoyillarga amal qilishi lozimdir.

Muallimlik kasbining qadr-qimmati, nafaqat uning o'qituvchi, turli tuman fanlardan bilim beruvchi va mohir tarbiyachi bo'lganligi uchun emas, avvalo, umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan ham belgilanadi. Aqliy va jismoniy mehnatning samarasi, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi. O'qituvchining qadrqimmati uning mansabi, kasbkoridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xulqatvoriga bog'liq.

Bunday obro'-e'tiborga erishish esa kasbhunar yo'nalishidagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo'lgan fundamental fanlarni o'qitish, tarbiyalashning metod va usullarini, psixologiya va pedagogika asoslarini yuqori darajada bilishni taqozo etadi.

Ana shu nuqtai nazardan shakllangan muallim turli darajadagi bilimga, istak va irodaga, tarbiyaga ega bo'lgan talabalarni ajoyib otaona va san'atkor kabi o'ziga ergashtira oladi. O'qituvchidagi bunday sifatlar hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan, nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan, ayni vaqtda yuksak insoniy fazilatlarga ega, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta o'zlashtirgan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Pedagogik mahorat» kursini o'qitishning asosiy maqsadi bakalavr talabalarini pedagogik mahorat, pedagogik texnika va madaniyati asoslari hamda amaliyoti bo'yicha bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashdir. Chunki, hozirgi zamon o'qituvchisi hayotimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilaridan biri sifatida har tomonlama etuk, chuqur bilimli, vatani va xalkiga sodiq, kasb vazifalarini mukammal bilgan shaxsga aylanmog'i zarur.

O'rganilganlik darajasi pedagogik mahort, texnika haqida N.Azizxo'jayeva, M.Omonov, N.Ochilov, A.Holiqov, J.Xudoyqulov, A.Kenjaboyevlar o'z tadqiqotlarida ko'rsatib o'tgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda pedagogik mahorat faninidan foydalanishning shakl va usullarini asoslash.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Oliy o`quv yurti talabalari va ularda pedagogik texnikani shakllantirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Bo`lajak o`qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning farazi. Agar:

Bo`lajak o`qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda pedagogik mahorat fani o`qitilsa,

Bo`lajak o`qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda tajribalarga tayanilsa,

Kasbiy mahoratni shakllantirishning omillaridan foydalanilsa, bo`lajak o`qituvchilarda kasbiy va shaxsiy sifatlar shakllanib mohir pedagog bo`lishida zamin yaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari. Bo`lajak o`qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda pedagogik mahorat fanining o`qitilish holatini o`rganish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Bo`lajak o`qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda pedagogik mahorat fanining mazmuni, shakli, metodlari, vositalari belgilab berildi. Bu o`z navbatida bo`lajak o`qituvchilarda pedagogik texnikaning shakllanishida yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini Prezident asarlari, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Qonunlari, “Davlat ta’lim standartlari”, Sharq allomalarining o`qituvchi mahorati haqidagi qarashlari.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi: kirish, ikki bob, xulosa va tavsiyalar foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

1-BOB. PEDAGOGIK MAHORAT FANINI O'QITISHNING MILLIY ASOSLARI

1.1. Pedagogik mahorat fani va uning fan sifatida vujudga kelishi

Eng qadimgi davrlardan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davrlarda o'qituvchi (murabbiy), shogird va ularning jamiyatdagi o'rnini, pedagogik faoliyat borasidagi ijtimoiy karashlar.

Hozirgi kundagi o'qituvchi-tarbiyachi faoliyati, mahorati, ularning jamiyatdagi o'rnini, ustoz-shogirdlik munosabatlari haqida gapirishdan avval, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida ustoz-o'qituvchi tarbiyachi faoliyati masalalariga to'xtalib o'tish lozim.

Ibtidoiy jamoa to'zumi davrida jamiyat yosh jihatidan 3 guruhga bo'linar edi:

1. Bolalar va o'smirlar.
2. Hayot va mehnatning to'la qimmatli va to'la huquqli ishtirokchilari.
3. Keksalar.

Yangi, tug'ilgan bolani jamoadagi keksa kishilar boqib, o'stiradilar. Bola tegishli biologik yoshga to'lib, ba'zi bir ijtimoiy tajriba mehnat qilishni o'rganib, hayotiy bilim va malakalarni egallagandan so'ng to'la qimmatli mehnatchilar guruhiga o'tardi. Ibtidoiy jamiyatda bola o'zining hayot faoliyati jarayonida kattalarning ishlarida qatnashib ular bilan kundalik muomalada bo'lib, tarbiyalanar va ta'lim olar edi. O'g'il bolalar katta yoshdagi erkaklar bilan ularning ishlarida qizlar esa ayollarning ishlarida qatnashardilar. Matriarxat oxirlarida o'g'il bolalar uchun alohida va qizlar uchun alohida tarbiya muassasalari - yoshlar uylari muassasalari paydo bo'ldi. Bu erda yoshlar ypyg' oqsoqollari rahbarligida yashashga mehnatga o'tkaziladigan sinovlarga tayyorlanar edilar.

Patriarxal urug'chilik bosqichida chorvachilik, dehqonchilik, turli hunar kasblari paydo bo'ldi. Shu bilan bog'liq ravishda tarbiya ham murakkablashib, ko'p tomonlama va rejali bo'la bordi. Bolalar tarbiyasi tajribali kishilarga topshiriladigan bo'ldi. Ular bolalarga mehnat ko'nikma va malakalarini o'rgatish bilan bir qatorda paydo bo'lib kelayotgan diniy urf-odatlarining qoidalari, naqlar bilan bolalarni

tanishtirar, yozishga o`rgatar edilar. Ertaklar, o`yin va raqslar, musiqa va ashula, butun xalq og`zaki ijodi xulqni, hatti-harakatni, xarakterning muayyan belgilarini tarbiyalashda katta rol o`ynaydi.

- Tarixiy manbalarga ko`ra bolalar savod maktablarida o`qitilgan, bundan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy, jismoniy mashqlarga va hunarga o`rgatilgan. Bolalar tarbiyasida oilaning ayniqsa, onalarning o`rni ham katta bo`lgan, 5 yoshgacha asosan ayollar tarbiyalagan.

- Qadimgi ajdodlarimiz yoshlarni vatanparvar, xalqparvar, sadoqatli, har qanday mashaqqatlarga bardoshli, jasur, kuchli, mard qilib tarbiyalashga e`tibor berganlar. Tarixiy shaxslar bilan bog`liq rivoyatlarda ham odamiylik, nazokat, aql-idrok, vafo-muhabbat, sadoqat, adolat kabilar ulug`lanadi. Bunday hislatlarni tarbiyalash, shakllantirish esa o`qituvchi ustozga yuklatilgan edi.

- Sharq mutafakkirlari va allomalarining ijodiy meroslarida o`qituvchi tarbiyachi mahorati, ustozlik-shogirdlik shartlariga ham alohida o`rin berilgan. qo`yida shulardan misollar keltiramiz: Masalan, mashhur faylasuf va mutafakkir, qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nosr Forobiy (873-930) ustoz - o`qituvchiga shunday talab qo`yadi: "Ustoz-shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko`ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg`otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq bo`lsa, shogird uni mensimay qo`yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o`qituvchiga bolalarning fe'l atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslahat beradi:

- 1. Tarbiyalanuvchilar o`qish o`rganishga moyil bo`lsa, ta'lim tarbiya, jarayonida yumshoq usul qo`llaniladi.

- 2. Tarbiyalanuvchilar o`zboshimcha, itoatsiz bo`lsa, qattiq usul (majburlov) qo`llaniladi.

- U o`qituvchining tarbiya usullarini hO`qumat (davlat) va shohlarning xalqni tarbiyalash va boshqarishdagi usullariga o`xshatadi, ularni qiyoslaydi. Hap ikkalasida ham yumshoqlik va majburlov zarurligini o`qtiradi.

- Mashhur olim Beruniy (973-1048) o`qituvchiga o`quvchini zeriktirmaslikni, o`tiladigan mavzuni qiziqarli va ko`rgazmali holda bo`lishi lozimligini maslahat

beradi. Beruniy Hindiston asarida esa olimlar ilm aqllarini hurmat qilishga chaqiradi. Bo`larni kishilar ayniqsa, hukmdorlar hurmat qilsa, ularga o`z o`rnida baho bersa, ilmlar ko`payadi, demak jamiyat iqqbolli bo`ladi, gullab yashnaydi.

•Buyuk alloma Ibn Sino (980-1037) talabaga bilim berish o`qituvchining mas'uliyatli burchi ekanligini ta'kidlaydi. U o`qituvchining qanday bo`lish kerakligi haqida fikr yuritar ekan, ularga shunday yo`l -yo`riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo`lish;
- berilayoggan bilimning talabalar qanday o`zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarni bilishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berilishi;
- har bir so`zning bolalar hissiyotini uygotish darajasida bo`lishiga erishishi lozim.

XI asrda yashab o`tgan allomalardan biri Yusuf Xos Xojib (XI asr) ham o`z ijodida ilm ahllarini ya'ni ustozlarni ulug`laydi. "Qutadg`u bilig" asarida ilm ahli ulug`lanadi.

Ularni hurmatlashga kishilarni chaqiradi.

Tag`in bir toifa donishmand, dono

Ular ilmi elga mash'al doimo.

E'zozla ularni to bor imkoning,

Bilimlaring o`rgan toki bor joning.

Bo`lardan haqiqat tayanch tirtgagi,

Bilimli diyonat asos o`zagi

Olimlar yo`q esa edi dunyoda ,

Emish ham kelarmu edi bu dunyoda

Ular ilmi bo`ldi xaloyiqqa nur,

Yorisa bu nurdan kishi yo`l topur.

Az – Zamaxshariy (1075-1143) "Nozik iboralar" risolasida ilmu fan ahllari, o`qituvchilarga nisbatan hurmat e'tiborning pasayib ketganidan kuyinib yozadi: "o`ttan zamonlarda ilmu- fazilat sohiblari podshoxlardan o`z og`irliklariga barobar oltin hadya olardilar, asta-sekin zamonlar o`tishi bilan ularning qiymatlari kamayib, itlaru-olmaxonlar ulardn afzal bo`lib qoldi, ya'ni nodonlar oltinlardan ortiq ko`riladigan bo`lib qoldi".

Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (Shayx Sa'diy) (1184-1204) ta'lim-tarbiyada muallimlarning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qatiqqo`l bo`lishning tarafdori bo`ladi.

Yubordi o`g`lini maktabga podsho,
qilib qo`yishga nyqpa taxtiga jo,
Kumush ul taxtaga zardan bitib yod,
"Ota mehridan afzal jabri ustoz".

"Gulistonda" yana ustoz-shogird munosabatiga oid hikoyat keltiriladi: "Bir odam kurash san'atiga zo`r mahorat qozondi, u 360 xiylani bilar va har kuni bir xiylani ishlatib kurashar edi. Shogirdlaridan biriga 359 xiylani o`rgatdi. Ammo bir xiylani o`rgatmadi: Ustozining hurmatini bilmagan shogird, ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so`z podshoga yoqmaydi. Ularni kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi xiylasini ishlatib shogirdini engadi. Ustoz hurmatini bilmagan shogird esa xaloyiq va podshoning nafratiga o`chraydi.

Burxoniddin Zarnudjiy(1150 -) "o`qituvchiga ta'lim yo`lida qo`llanma" kitobining bir bo`limi "o`qituvchi, o`rtoq, fanlarni tanlash haqida" deb nomlanadi. Unda o`quvchiga quyidagicha maslahat beradi:

"O`qituvchi tanlaganingizda eng avvalo bilimliligiga, eng oliyjanobiga va yana keksasiga to`xtamoq kerak ... Muallim, ustozga nisbatan hurmatda bo`lish ifodasi shO`qi shogird muallimdan oldin yurmasligi, uning o`rniga borib o`tirmasligi lozim".

Sohibkiron Amir Temur (1336-1405)ham o`z hukmronligi davrida ilm ahllari, muallim, mudarisslarga hurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Jamiyatning rivojida ularning o`rnini muhim deb

biladi. Ko`plab maktab, madrasalar ochadi, ularga muallim va mudarrislar tayin etadi. o`zining ustozlarini ham juda qadrlaydi.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida ham muallimlar ishi ularga munosabat masalalariga keng o`rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o`zlari ham bilimli va tarbiyali bo`lishi zarurligini uqtiradi. Nodon, mutaassib, johil domlarni tanqid etadi va o`qituvchi ma'lumotli o`qitish yo`llarini biladigan muallim bo`lishi zarur deydi. Masalan: "Mahbub-ul-qulub" asarida maktabdorlar haqida fikr yuritir ekan, ularning o`ta qattiqqul, johil va ta'magirlarini: "Maktab tutuvchi gunohsiz yosh bolalarni jafo qiluvchidir"¹, - deb yozadi. Shu bilan birga o`qituvchining mehnatining og`irligini holisona baholaydi:

"Uning ishi odam tugul, hatto devning ham qo`lidan kelmaydi. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilar edi, u esa bir to`da bolaga ilm va adab o`rgatadi. Lekin shunisi ham borki, bolalar orasida fahmi idroki ozlari bo`ladi. Muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko`p, agar shogird ulg`aygach, podshohlik martabasiga erishsa ham o`z muallimiga qulluq qilsa arziydi.

Haq yo`lida kim senga bir xarf o`qitmish rand ila,

Aylamak bo`lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Navoiy o`qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo`ysa, unga bo`lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma'naviy pok bo`lishlarini talab etadi. "Mudarris kerakki g`arazi mansab bo`lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa manmanlik uchun dars berishga havas ko`rgazmasa, yaramasliklardan qo`rqsa va nopoklikdan qochsa".

Xusayin Voiz Koshifiy (1440-1505), (Xuroson) "Futuvatnomai Sultoniy yoxud javomardlik tariqati" asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to`xtaladi. "Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so`rasalar, irodat ustiga deb javob bergin. Agar irodat nima deb so`rasalar, samo va toatdir deb aytgin.

¹ J.Xudoyqulov Pedagogik mahorat asoslari. "Navro`z", T.2012 yil 17-bet

Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so`rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon qulog`i bilan eshitish, chin kungli bilan qabo`l qilish va vujud a'zolari orqali amalga ado etishdir deb ayt.

U shogirlikning 8 ta odobini ko`rsatadi: 1. Birinchi bo`lib salom berish. 2. Ustozning oldida oz gapirish. 3. Boshni oldinga egib turish. 4. Ko`zni har tomonga yugurtirmaslik. 5. Gap so`ramokchi bo`lsa oldin ustozdan ijozat olish. b. Ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik. 7. Ustoz oldida boshqalarni g`iybat qilmaslik. 8. o`tirib turishda hurmat saqlash.

Koshifiy ustozlik shartlarini ham ko`rsatadi. "Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo`lmagan".

Kimki ustozsiz ish boshlagan bo`lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo`l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so`ngra o`zing ustoz bo`l ... Agar komil inson kim deb so`rasalar, u pok mazxabli, o`z aybini ko`radigan dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo`lmaydi.

O`qituvchining ko`p qirrali va murakkab faoliyat zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o`qituvchining xilmaxil faoliyatiga bog`liq: bolalarni o`qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bili shva o`tkazish, ota-onalar o`rtasida pedagogik targ`ibot ishlarini olib borish va hakazo.

O`zbekiston Respublikasi oliy ta'lim kontsepsiyasida o`qituvchi mutaxassis oldida turgan vazifalar quyidagicha belgilanadi: - «Mutaxassis malakasi – chuqur ilmiy bilim, keng»

1.2. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish omillari.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan har bir Qarorda barkamol avlod tarbiyasi va ulaming kasbiy mahoratini awalo ta'lim muassasalarida oshirib borishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan 2010 yilning "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi ham pedagoglar va tarbiyachilar zimmasiga ulkan mas'uliyatlar yukladi. Jumladan, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida "Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish"*² muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni beqam ko'st amalga oshirilishi uchun bugungi kunda awalo, bo'lajak o'qituvchilarning saviyasini va bilimni uzluksiz takomillashtirib borishga mustahkam zamin yaratilishi kerak. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ushbu muammolarning echimini topishda "Pedagogik mahorat" fanini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumiadan, "Pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.

² "ADOLAT" ijtimoiy siyosiy gazelasi. - Toshkent, 2010. № 4, 29 yanvar.

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'syunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash,

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy - siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'am-xo'rlik qilish, zarur shart - sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy - metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Shunga asosan, «Pedagogik mahorat» fani, mahoratli o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, o'qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim - tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq - atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar dzimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

O'QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATI TARKIBIY QISMLARI

Pedagogik faoliyatning maqsadi

Pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti

Pedagogik faoliyatning vositasi

1-chizma.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari

— ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. O'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarim o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur boigan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuza- tuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli boigan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'qituvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni echish uchun o'quv - tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik-psixologik ta'limot nuqtai - nazaridan yondashish, ta'lim - tarbiyani milliy an'analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o'quv- tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o'qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'rin olgan.

Shunga ko'ra, «Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarini o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

Bu maqsad bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni miin- tazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Boijak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.

2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

3. Bo'lajak o'qituvchilar friilliy urf-odat va an'analarimizda va O'rta Osiyo rhutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.

4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.

5. O'quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.

6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egal- laydilar.

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.

8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.


Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifa- larini vijdonan tasawur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

Xo'sh pedagogik mahoratning o'zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi:

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayri- xohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillash- tirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. Uo'zfanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega

bolgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: "pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi". Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:



2-chizma.

Dars jarayonida o'quvchilar bilim faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng asosiylaridan biri o'quvchilarni o'z faniga qiziqitira olishdir. Olimlar ta'kidlaganidek, faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va iroda kabi funktsiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining bilishga oid qiziqishlari ko'p qirrali qiyofalarda namoyon bo'ladi: o'quvchini harakatchan va qiziquvchanligi,

o`quvchining ayrim o`quv faoliyatiga shuningdek, umuman o`qishga bo`lgan motivlari, o`quvchi shaxsining o`ziga xos belgilari va uning yo`nalishini qaror topishi ana shular jumlasidandir.

O`quvchi yosh davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyin. Shuning uchun ham **K. D. Ushinskiy** "zo`rlash va majburlashga asoslangan o`qitish" o`quvchining aqliy rivojlanishiga hech qanday ta'sir ko`rsatmasligini alohida ta'kidlab o`tgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiziqishlar va motivlar o`quvchilar o`quv faoliyatlarining shakllanish darajasiga qarab shaxsning shakllantiruvchi (o`quvchining nazariy fikri, o`qish faoliyatini o`quvchi shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o`zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo`ladi.

Xo`sh, o`quvchilarning o`qishga (bilishga) bo`lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Mohir o`qituvchi ularni darsda o`quvchilarda shakllantirish uchun nima qilishi kerak? O`quv faoliyatini faollashtirish va o`qishga bo`lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak?

Mohir o`qituvchi o`quvchilarda o`qishga bo`lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir:

1. O`quvchilarni bilishga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o`quv jarayonini shunday tashqil etilishini ta'minlaydiki, unda o`quvchi faol harakat qiladi, mutsaqil izlanish va yangi omillarni "kashf etish"ga, muammoli vaziyatlarni o`zi hal etishga intiladi.

2. O`quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo`lgandagina, qiziqarli bo`ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakatlar tez orada zerikishni vujudga keltiradi.

3. Fanga bo`lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o`rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini o`quvchilarga anglatish juda zarurdir.

4. O`tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko`proq bog`lab tushuntirilsa, u o`quvchilarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O`quv materialini

o`quvchilarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog`lab tushuntirish ham, ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o`ynaydi.

5. O`rtacha qiyinlikdagi o`quv materiali ham o`quvchilarda qiziqish uyg`otmaydi. O`quv materiali bir oz qiyinroq, lekin o`quvchilar kuchi etadigan bo`lishi kerak.

6. O`quvchilar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo`lgan qiziqishini uyg`otadi.

7. O`quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o`qituvchining zavqlanib gapirishi ham o`quvchiga, uni fanga bo`lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta'sir ko`rsatadi.

Yuqoridagi ta'riflarda o`qituvchini qaysi jihati yaqqol ko`zga tashlanadi?

Ilg`or o`qituvchilar o`qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. O`quvchilarning frontal, differentsiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlilarining umumiy jihatlari ko`proq bo`lsada, ularni tashqil etish o`qituvchidan o`ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. O`quvchilik faoliyatining ob'ektini tarkibi va o`ziga xosligi uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondoshishini taqozo qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko`rsatilar ekan, unda tarbiyasi ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo`ladi.

Ayrim hollarda o`qishga qiziqtiruvchi metodlardan, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag`batlantiruvchi metodlarga ko`proq e'tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali o`qituvchilar o`tilayotgan mavzuni xalq xo`jaligi masalalarini hal etishdagi ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar, didaktik o`yinlardan, o`quvchilar faolligini rag`batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin o`quvchi faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli holda tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham o`qituvchi o`quvchilarda paydo bo`ladigan qiyinchiliklarni engish uchun o`ziga iroda va qat'iylikni ham tarkib topshirishi zarur.

Prezidentimiz I.A.Karimov o`z nutqlarida yoshlarga katta ishonch bildirib, O`zbekiston kelajagi yoshlar qo`lida ekanligini ta'kidlar ekan, avvalo yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlar qilib etishtirish o`qituvchi va tarbiyachilarning fidokorona mehnati bilan bog`liqligini nazarda tutadi.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama etuk, komil insonni tarbiyalashda o`qituvchining o`rni beqiyosdir.

Prezidentimiz o`zining qator nutqlari va asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga to`xtalganda, o`qituvchini e'tibordan chetda qoldirmaydi.

I.A.Karimov Oliy Majlis IX sessiyasida so`zlagan «Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori»³ mavzuidagi nutqida, jamiyatimizda ta'lim berish tizimi, yangilanish jarayoni talablari bilan yaqindan bog`lanmaganligi sabablaridan biri o`qituvchiga borib taqalishini aytib o`tadi: «Tarbiyachilarning o`ziga zamonaviy ta'lim berish ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo`lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz».

Bizning fikrimizcha, ta'lim-tarbiya tizimini o`zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu erda. O`qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o`zi ana shunday bilimga ega bo`lishi kerak.

Bundan ko`rinadiki, o`qituvchi avvalo zamonaviy bilim bilan qurollangan bo`lishi lozim.

Eski ta'lim tizimining yana bir qusuri, boshlang`ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qarayotganligimizdadir, — deydi prezidentimiz: «Ochiq aytishimiz kerak: bilimi sayoz muallimlar birinchi sinfda dars beraveradi».

Boshlang`ich ta'limga past nazar bilan qaralishining isboti shO`qi, sobiq SSSRda butun boshli pedagogika texnikumlari va bilim yurtlari tizimi tashkil etilib, ular asosan 1-4 sinf o`quvchilarni o`qitadigan muallimlar tayyorlar edi.

Vaholanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang`ich sinflarga eng etuk, eng tajribali murabbiylarni biriktirib qo`yilishi oddiy mantiqning o`zini talab etadi.

Prezidentimiz qo`yayotgan yana bir talab demak, boshlang`ich sinflarga eng etuk, tajribali o`qituvchilarni qo`yish.

³ I.A.Karimov Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. T.1997 yil 7-bet.

I.A.Karimov o`zining qator asarlarida ta'lim - tarbiya sohasidagi islohotlarimizning mazmuni erkin, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilishini ta'kidlab o`tadi. Bu jarayonda o`qituvchi - o`quvchi munosabatini o`zgartirish talab etiladi. Yurtboshimiz: "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko`rgan shaxslar kerak" - deyish bilan maktablarda mustaqil fikrlashga o`rgatilmayotganligiga ham to`xtalib o`tadi.

Maboda biror o`quvchi o`qituvchiga e'tiroz bildirsa, ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o`qituvchi hO`qmron. U boladan faqat o`zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Printsip ham tayyor: "Mening aytanim aytgan deganim - degan".

Hozirda o`qituvchi va o`quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o`rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi.

Uqituvchiga qo`yiladigan yana bir muhim talab, yangi pedagogik texnologiyalarni chuqur tushunib etib va bolalarni mustaqil fikrlashga o`rgatishdan iborat.

Prezidentimiz Oliy Majlis XI sessiyasida so`zlagan "Konstitutsiyamiz inson manfaati uchun xizmat qilsin" nutqida tarbiyachi va o`qituvchilarni O`zbekistonda bo`layotgan turli xavflardan yoshlarni himoya qiluvchi bo`lib maydonga chiqishga chaqiradi: "Olimlarimiz, ta'lim tarbiya dargohlarining tarbiyachilari, o`qituvchilari O`zbekistonga bo`lgan xavf va taxdidlarni to`g`ri tahlil qilib, bolalarimiz taqdiri uchun birinchi navbatda yonib harakat qilishi, bolalarimizni bunday yovo`z xavfdan himoya qilish zarur"⁴.

Ta'lim to`g`risidagi qonunning 5-moddasida "kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo`lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug`ullanish huquqiga ega" ekanligi ta'kidlanadi.

⁴ (Barkamol avlod orzusi 77-bet)

Qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va hozirgi kunimiz talabi bo'yicha o'qituvchiga qo'yilgan talablar ham kengayib, murakkablashib bormoqda.

O'qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi, o'qituvchining yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti kichik pedagogik jarayon esa juda xilma - xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Shuning uchun hozirgi kun o'qituvchisi:

- *pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;*
- *milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;*
- *O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;*
- *ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;*
- *o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchi ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;*
- *erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.*

Davlatimiz xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi kunda ta'lim - tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

II. BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TEXNIKANING SHAKL VA USULLARI

2.1. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik mahorat fanini o'qitish shakllari

Pedagogik Mahorat

Bakalavr:

- pedagog kasbning o'ziga xos xususiyatlari;
- pedagog shaxsi, uning jamiyatda tutgan o'rni;
- pedagog faoliyatining asosiy yo'nalishlari;
- kasbiy mahorat tushunchasi;
- pedagog va ta'lim sohasidagi axborot texnologiyalar;
- XXI asr pedagogiga qo'yiladigan asosiy talablar to'g'risida *tasavvurga ega*

bo'lishi;

- pedagogik fikr tarixida mahorat masalalari;
- pedagogik qobiliyat, uning turlari;
- pedagogning kommunikativ qobiliyati, uning vositalari;
- pedagogning muloqot madaniyati va psixologiyasi;
- pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlari;
- pedagogik nazokat va odob-ahloq me'yorlari;
- pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari;
- ta'lim jarayonidagi pedagogning mahorati;
- pedagog mahoratini takomillashtirish shart-sharoitlarini *bilishi, malaka hosil*

qilishi va amalda qo'llay olishi;

- tanlangan metod va texnologiyalarni joriy qilishda muhitni, vaziyatni baholay olish;
- ta'lim va tarbiya jarayonida talab qilingan irodani namoyish qilish, sabr-toqat, qat'iyat, kayfiyatni o'zgartira olish, javobgarlikni his qilish;
- yuz bergan noxush vaziyatdan chiqib keta olish;
- pedagogik jarayonda har qanday nizolarning oldini olish;

- o`z xatti-harakatlarini boshqara olish va bunda go`zallikka erishish;
- o`z pedagogik nazokati va odobini takomillashtirib borish;
- nazokat bilan so`zlash texnikasiga rioya qilish;
- ta'lim va tarbiya jarayonida san'atkorlik unsurlaridan foydalanish;
- o`z mehnatini rasmiy va ijodiy tashkil eta olish: vaqtdan unumli foydalanish;
- o`z mahoratini tinmay oshirib borish;
- ilg`or tajribalarni o`z faoliyatiga singdirish *ko`nikmalariga ega bo`lishi*

lozim.

O`qituvchining ko`p qirrali va murakkab faoliyat zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o`qituvchining xilmaxil faoliyatiga bog`liq: bolalarni o`qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiy ishlarni tashkil eta bilish va o`tkazish, otaonalar o`rtasida pedagogik targ`ibot ishlarini olib borish va hakoza.

O`zbekiston Respublikasi olii ta'lim kontseptsiyasida o`qituvchi mutaxassis oldida turgan vazifalar quyidagicha belgilanadi: — «Mutaxassis malakasi — chuqur ilmiy bilim, keng dunyoqarash va kasb tayyorgarligi, kompyuter bo`yicha savodxonligi, o`z bilimini tezlik bilan yangilash va to`ldira olish qobiliyati singari omillardan, shular qatorida intizomi, mas'uliyati, ziyoliligi, ishiga, mamlakati mustaqilligiga, Vatan va jahon taraqqiyoti yo`lida ezgulik va adolatga sadoqat tuyg`ularini o`zida mujjassam etganidan tashkil topadi».

Ma'lumki, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan oktyabr oyining birinchi yakshanbasi xalq ta'limi xodimlari kuni deb e'lon qilingan. Bu voqea davlatimizda o`qituvchilarning jamiyatda tutgan o`rni naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ilg`or o`qituvchilarimizga yuksak unvonlar, davlat mukofotlari berilishi ularga mas'uliyatli vazifalarni ham yuklamoqda. Ayniqsa, Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, o`qituvchining jamiyatdagi roli va mas'uliyati tobora ortib bormoqda.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Oliy o`quv yurtlarida ixtisos tayyorlash tizimida «Pedagogik mahorat» kursini o`qitish maqsadga muvofiq bo`lib qoldi.

«Pedagogika nazariyasi», «Maktabda tarbiyaviy ishlar metodikasi», «Fanlarni o`qitish uslubiyati», «Pedagogika tarixi» va «Pedagogik amaliyot» bilan bir qatorda «Pedagogik mahorat asoslari»ni o`qitish ham bo`lg`usi mutaxassislarni tayyorlash, o`qituvchining malakasini oshirish Milliy dasturda belgilangan vazifalardan biridir.

«Pedagogik mahorat» kursi o`qituvchilarni ilmiy — metodik va amaliy jihatdan tayyorlashni maqsad qilib qo`yadi. Uning asosiy yo`lanishlari: pedagogik ijodkorlik, pedagogik topqirlik, pedagogik muloqot, o`qituvchining professional sifatlari, o`qituvchi nutqi, uning o`quvchiga har tomonlama ta'sir etish mahorati, pedagogik texnika hamda o`qituvchining tarbiyachilik mahoratidan iborat. O`qituvchi faoliyati o`z xususiyatiga ko`ra ijodiy yo`nalishga ega. Shunga ko`ra u yuqorida sanab ko`rsatilgan yo`nalishlardan tashqari, o`qituvchining o`quvchilarga ta'sir etish yo`llari, usullari, lektorlik san'ati va mahorati kabi masalalarni ham o`z ichiga oladi.

Amaliy darslarda esa o`qituvchi nutqi va fikrlash madaniyati, o`quvchiga pedagogik ta'sir etish usullari, tarbiyachining tashkilotchilik mahorati kabi masalalar o`rganiladi. Laboratoriya darslarida esa diqqatni mustahkamlash uchun ayrim mashqlar bajariladi. Laboratoriya va mustaqil ish qismida pedagogik masalalar tuziladi va uni echish yo`llari o`rganiladi, pedagogik vaziyat hosil qilinadi va bu vaziyatdan chiqib ketish imkoniyatlari izlanadi. Mazkur amaliy ishlar o`qituvchining o`quvchilar bilan muomala qila bilish malakasini tarbiyalaydi. «Pedagogik mahorat» kursining amaliy darslaridan bir qismi maktablarda, litseylarda, kasb — hunar kollejlarida tashkil qilinadi va olingan nazariy bilimlar mustahkamlanadi.

Ta'lim — tarbiya jarayonining dialektik xususiyati unga ijodiy yondoshishni talab etadi. Uzoq yillar biz majburiy, imkoniyatlar cheklangan tizimda ishladik. Natijada maktablarda va oliy o`quv yurtlarida yuzaki o`quv rejalari va dasturlari doirasida o`ralashib qoldik. Ijodkorlik, mustaqillik va topqirlik ta'qiqlandi, maktab inqirozga yuz tutdi, shukurkim, bu kunlar o`tmishda qoldi.

Ta'limtarbiyada har bir joyning, millatning yashash tarzi va xususiyatini hisobga olish qonuniyati yuksak pedagogik mahorat va madaniyatni, topqirlikni talab etadi. Fan va texnikaning, madaniyatning, jamiyatning tuzilishini, fan va texnikaning uzluksiz rivojlanishini hisobga olib, ta'lim va tarbiya mazmunini doimo

takomillashtirib turish kerak bo`ladi. Ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish esa o`qituvchining ilmiymetodik tayyorgarligi, ijodkorligi va topqirligiga bog`liq.

Pedagogik texnikaning tuzilishi.

Mutlaqo to`g`ri bo`lgan pedagogik tadbirni o`rnatish mumkin emas. Pedagogik san'at vaziyat bilan bog`liq. Bu erda har gal hamma narsa yangidan sodir bo`lganday tuyuladi. Binobarin, kishi o`zining har bir qadamini oldindan ko`rishi, rejalashtirishi amalda mumkin bo`lmaydi. Pedagogning mehnati behad izlanishlardan iborat.

Pedagogik san'at –bu qo`l bilan tutib bo`lmaydigan, faqat farosat bilan amalga oshiriladigan ishdir, degan taassurot tug`iladi.

Biz mohir pedagog – o`qituvchilarning muvaffaqiyat bilan ta'sir usullaridan foydalana olishini, turli amaliy pedagogik vazifalarni mohirona qo`yishi va hal etishini ko`ramiz. Bunda maxsus ko`nikma asosiy rol o`ynaydi, ya'ni: o`quvchilarni bilish faoliyatiga jadal jalb etishi, savollar qo`ya olishi, jamoa va alohida shaxs bilan muloqoti, ko`zatmalar olib borishi, jamoani uyushtira olishi, o`z kayfiyatini, ovozi, mimika, hatti-harakatlarini boshqara olishi namoyon bo`ladi.

Ta'lim – tarbiya san'atida o`zining pedagogik texnikasi, o`zining “bir qolipdagi” mehnat madaniyati borki, ularni bilib olish zarur. Pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirishning butun sistemasi ana shunga qaratilmog`i lozim. Biroq, hali hech kim oliy o`quv yurtida o`qib yoki o`qituvchilar malakasini oshirish kursini tamomlagandan keyin usta pedagog bo`lib qolmagan. Pedagog mehnat ustalari maktabda vujudga keladi, bolalar bilan muomalada tarbiyalanadi.

Pedagogik mahorat fahm-farosat va bilimlarning, chinakam ilmi, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo`lgan nufu`zli rahbarlikning, bolalar qalbining qandayligini his qilish qobiliyati, ichki dunyosi nozik va zaif bo`lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik, ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, hayol, fantaziyaga bo`lgan qobiliyat mujassamidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko`proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Aynan pedagogik texnika o`qituvchining ichki tuyg`ulari va tashqi qiyofasi uyg`un bo`lishiga yordam beradi. Pedagogning mahorati uning ichki madaniyati va pedagogik tashqi ma'nodorligida aks etadi.

“Pedagogik texnika” tushunchasi ikki tarkibiy qismni o`z ichiga oladi:

1) Pedagogning o`z xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyati: o`z organizmidan (mimika, pantomimika) foydalana olish; o`z kayfiyati va hissiyotlarini boshqarish (psixik zo`riqishni oldini olish, ijodiy holatni vujudga keltirish); ijtimoiy – pertseptiv qobiliyatlar (diqqat, ko`zatuvcchanlik, ijodiy tasavvur); nutq texnikasi (nafas olish, ovozni yo`lga qo`yish, to`g`ri talaffo`z, savodli nutq).

2) O`qituvchining shaxsga va jamoaga ta'sir eta olish qobiliyati va u ta'lim va tarbiya jarayonining texnologik tomonini yoritadi, ya'ni didaktik, tashkilotchilik, loyihalash, kommunikativ qobiliyatlar; talablarning texnologik usullarini qo`ya olish; pedagogik muloqotni boshqarish, kollektiv ijodiy ishlarni tashkil eta olish va hakazo.

O`qituvchining pedagogik texnikasi – bu shunday malakalar yig`indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko`rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o`z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. Bolalar bilan muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari uning xulq-atvorida namoyon bo`ladi.

Pedagogik texnika o`qituvchi malakalarining shunday yig`indisidirki, o`qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq-atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir qo`rsatishga yordam beradi.

Mukammal pedagogik texnika pedagogning vaqti va kunlarini ijodiy ish uchun bo`shatib beradi, pedagogik o`zaro ta'sir ko`rsatish jarayonida bolalar bilan muomala qilishda zarur so`zni topish yoki muvafaqqiyatli chiqmagan gap ohangini tushuntirishga o`z fikrini chalg`itmaslik imkonini beradi. Pedagogik texnikani egallab olgan o`qituvchi ovozi bo`g`ilgandan yoki o`zining ish bilan bog`liq bo`lmagan kechinmalarini unutishni bilmaslikdan azoblanib yurmaydi. Demak, pedagogik texnikani egallash o`qituvchining o`z kasb-faoliyatidan qanoatlanish, darajasining o`sishiga olib kelishi mumkin.

Pedagogik texnika – usullarning xilma-xilligidir. Uning vositalari bo`lib nutq va muloqotning noverbal vositalari xizmat qiladi.

Noverbal muloqot axborot va tuyg`ularni yuz ifodasi, imo-ishora va harakatlar yordamida almashishdir. Noverbal muloqotga ba'zan «badan tili» sifatida qaraladi, biroq bunday qarashlar xato bo`lib, biz noverbal signallardan aytilganlarni ta'kidlash, kuchaytirish yoki kengaytirish maqsadida foydalanamiz.

Yuz ifodalari, ta'na holatlari, ishoralar so`zlarga «qo`shimcha» sifatida, shuningdek hech narsa aytilmagan bo`lsa, ma'no o`zlash maqsadida ishlatiladi.

Pol Ekman yuz ifodasini belgilaydigan muskullar harakatini tavsiflab chiqdi va uni «Yuz ifodalarini kodlashtirish tizimi» deb atadi. Uning tadqiqotiga ko`ra, yuzdagi olti asosiy emotsiya (**baxt, achinish, jahl, nafrat, qo`rqinch, hayrat**) barcha odamlarda bir xildir va tug`madir.

Eybl-Eybesfeldt tug`ma qo`r va kar bo`lgan olti bolaning emotsional holatdagi yuz ifodalari boshqa sog`lom odamlardan farq qilish yoki qilmasligini aniqlash maqsadida ko`zatuvi o`tkazdi. Bolalarning yoqimli ish bilan shug`ullanganda kulishlari, noma'lum hidli predmetni sezganda hayron bo`lib qoshlarini ko`tarishi, yoqimsiz narsa taklif qilinganda qovog`ini solishi ma'lum bo`di. Bolalar hech qachon boshqa odamlardagi shunday yuz ifodalarini ko`rmaganlar. Demak, bu reaksiyalar tug`ma bo`lsa kerak, degan fikrga keldi.

Ba'zi odamlarda yuz ifodasini nazorat qilish va muomaladagi odob yuqori darajada takomillashgan bo`ladi. Bunday professionalizm o`zi yoqtirmaydigan, xatto nafratlanadigan odamlar bilan ham o`zaro muomalaga kirishganda o`zini erkin va bemalol tuta oladigan diplomatlar uchun xosdir. Ba'zan bunga qay darajada erishishiga qarab butun millatning taqdiri unga bog`liq bo`lib qoladi.

Bolalar o`qituvchining yuzini «o`qiydilar», uning yuziga qarab kayfiyatini biladilar, shuning uchun o`qituvchi hissiyotlarini aks ettirish bilan birga, ularni bildirmasligi ham kerak. Sinfga ta'lim-tarbiya jarayonida tegishli yuz ifodasi bilan kirish kerak.

O`qituvchi o`z yuzini diqqat bilan ko`zlashishi, ma'noli qarashni o`rganishi kerak, «yugurik ko`z»dan, «tosh» yuz – hissiz yuz ifodasidan qochishi kerak.

O`qituvchi va o`quvchilar o`rtasida vizual muloqot yaratish, ya'ni ko`z bilan bolalarga qarash kerak, yuz qarashi bilan butun sinfni ko`zlash kerak.

Bir qator pedagoglar bo'lajak o'qituvchilarning tipik xatolari ustida ko'z o'tkazib olib borganlar. Ularga o'qituvchilar bilan va ularning ota-onalari bilan samimiy muloqotga kirisha olmaslik, g'azabni chiqarish yoki uni chiqarmaslik, qat'iyatsizlikni engish muammolari ko'p uchraydi.

Amaliyotga chiqqan talabalar o'zlarining birinchi darslari haqida shunday yozadilar: nutqida chalkashliklar borligi, haddan tashqari talabchanlik, xayrixoh tonda gapirishdan qo'rqqanligi, nutqida takrorlashlar, sinfdan qo'rqish, doska oldida u yoqdan bu yoqqa maqsadsiz yurish, keraksiz imo-ishoralar qilish, tosh qotib turishi, qo'llarni qayoqqa qo'yishni bilmaganlar, elka va boshlari egilgan, qo'lida turli narsalarni o'ynaganlarini aytadilar. Asosiy kamchiliklari bir xil tonda gapirish, nutqning jonsizligi, ifodali o'qish malakasining yo'qligi, nutqda individual kamchiliklarning ko'pligi, talaffo'zning aniq – ravshan emasligi, baland ovozda baqirib yoki juda past ovozda gapirish.

Yuqorida aytilgan barcha xatolar pedagogning o'qituvchilarga samarali ta'sir etishga halaqit beradi. Bu xatolarni bartaraf etish esa oliy ta'lim muassasasida amalga oshiriladi. Aynan pedagogik mahorat fanidan, desak xato qilmaymiz.

Tarbiyachining tashqi qiyofasi estetik ma'no kasb etgan bo'lishi lozim. Tashqi ko'rinishiga e'tiborsiz qarash va haddan ziyod e'tibor berish ham mumkin emas.

Soch turmagi, kiyimi, taqinchoqlari o'zini ko'z-ko'z qilishga emas, doim pedagogik vazifalarni hal etish – ya'ni tarbiyalanuvchilarni shaxs sifatida shakllantirishga samarali ta'sir etishga qarakatilmog'i lozim. O'qituvchi chiroyli kiyim kiyishga, taqinchoqlar taqishga, o'ziga oro berishga haqqi bor, lekin me'yorni esdan chiqarmasligi kerak. Yuzidan samimiylik, qat'iyatlilik harakatdagi, imo-ishoradagi, yurishdagi bosiqlik, tabiiylik bilinib turishi kerak. Unga g'ayritabiiy qiliqlar, notabiiy imo-ishora, bo'shanglik (ham imo-ishorada, ham fe'l-atvorda) to'g'ri kelmaydi. Hatto sinfga qanday kirishingiz, qanday qarashingiz, qanday salomlashishingiz, stulni qanday surishingiz, sinfdan qanday yurishingiz – mana shunday barcha “arzimas” narsalarda bolaga ta'sir etish kuchingiz namoyon bo'ladi.

Pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining o'z hissiy psixik holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy(ijodiy) jiddiylik darajasini va umidbaxshlik,

xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o`zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim ahamiyatga ega. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o`z-o`zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Ko`p yillar davomida sog`lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy bzkilishlardan, hissiy va aqliy zerikishdan o`zini tiyishga yordam beradi.

2.Pedagogik texnikani qanday egallash kerak.

Pedagogik texnikani egallash uchun avvalo, o`qituvchi o`z fanini, o`qitadigan predmetini, pedagogika (bolashunoslik), psixologiya (ruhshunoslik) fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o`z-o`zini tarbiyalay oladigan bo`lishi zarur. Chunki pedagogik texnika individual shaxsiy xususiyatga ega. Har bir o`qituvchi, har bir pedagog o`zining kasbiy yo`nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega. Bu yo`nalish va laboratoriyani o`zi mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish orqali qo`lga kiritadi va mohir o`qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydi hamda kasbiy ideal sari harakat qiladi. Pedagogik texnikani egallashning **birinchi yo`li** shudir.

Pedagogik texnikani egallashning **ikkinchi yo`li** tashkiliy - metodik malakalarni egallashga bog`liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo`yicha lektsiyalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o`qish orqali qo`lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo`l-yo`riqlar, ko`rsatmalarni o`zining individual kasbiy tajribasida sinab ko`nikma hosil qilinsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo`lib ishlash, o`qish, faoliyat ko`rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo`lib o`qish, ishlash har bir pedagogga o`zini boshqalar ko`zi bilan ko`rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va hulq-atvorning yangi shakllarni izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa o`z-o`zini bilish, o`z-o`zini tarbiyalash uchun asos bo`ladi, va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko`rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydoni bo`lib qoladi.

Demak, tashkiliy- metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg`ulotlari pedagogik texnika asoslarini egallash imkonini beradi.

Pedagogik texnikani egallashning **uchunchi yo`li-** har bir pedagogning individual dasturini ishlab chiqishdir. Bunday dasturni to`zishdan oldin pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang`ich darajasini aniqlab olish zarur.

Ya'ni pedagogning dastlabki o`quv-tarbiya ishlaridagi natija, nutq madaniyatining to`g`ri yoki noto`g`ri qo`yilishi, mimik va pantomimik aniqliklar va h. k. Bunda natija yaxshi bo`lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo`ladi. Chunki ushbu ko`nikma va malakalar rivojlantiradi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining etishmaydiganini to`ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o`z ichiga oladi.

Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik jarayonda pedagogning umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o`rin tutadi. Agar o`qituvchining nutqi qashshoq, so`zlarni talaffo`z qilish qobiliyatli past, estetik jihatdan omil, bo`lar bo`lmasga hissiyotiga erk beradigan bo`lsa tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Demak, o`qituvchi o`zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim ekan. Bu pedagogik texnikani egallashning to`rtinchi yo`lidir.

Shunday qilib, pedagogik texnika, uning malakalari, egallash yo`llari to`g`risida bildirgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning roliga etarli baho bermaslik, shuningdek pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir pedagogning individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko`rsatadi va o`quv-tarbiya ishidagi nuqsonlarning ko`payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo`llari o`qituvchi rahbarligidagi mashg`ulotlar (pedagogik texnikani o`rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o`z-o`zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o`z-o`zini tarbiyalash, ya'ni talabanning o`zida mohir o`qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o`ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari bu harakatda ham pedagogik texnikani egallash muhim rol o`ynamog`i lozim.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg`ulotlari individual, gruppaviy yoki ketma-ketlikda o`tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar lektsiyalarda yoki tegishli adabiyotni (xususan, mazkur qo`llanmani) mustaqil o`qishda egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli

artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko`rsatilishi mumkin. Tegishli ko`nikmalarni ishlab chiqish individual ishlashni dastlab o`qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlashni talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda gruppaviy ish olib borish alohida rol uynaydi. Pedagogik texnika mashg`ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o`qituvchilar uchun mo`ljallangan o`quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko`rsatib berilmagan. Xuddi shunday ishda pedagog oldida o`zini boshqa kishilar ko`zi bilan ko`rish, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlash va sinab ko`rish, o`zining odamlar bilan birga qiladigan ishi xususiyatlarini anglash va kasbi faoliyatining individual uslubini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo`ladi. Grappa shaxsning o`z-o`zini bilish va o`z-o`zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib quriladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo`lib qolishi mumkin.

Psixologlarning pedagogik texnikani guruh bo`lib o`rgatish rahbarlarining tajriba ishida bunday guruhlarining eng qulay miqdori 10—14 kishidan iborat bo`lishi belgilab berilgan. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga boshqa kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini juda to`liq ravishda aniqlab, hal etish, refleksiya va empatiya darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm-farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo`lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o`z-o`zini bilish va kasbiy jihatdan o`z-o`zini tarbiyalash bo`yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo`lishlari kerak.

Barcha xollarda ham individual, ham guruhviy mashg`ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi to`zib chiqilishi lozim. Bunday dasturni to`zish uchun avvalo pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang`ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribaning ko`rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko`nikmalar haqida ham borishi

mumkin ekan. Bo`lar, masalan, nafas olish va ovoznining tabiiy yo`lga qo`yilishi, to`g`ri talaffo`z, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo`lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo`lishi mumkin. Bunday ko`nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha xollarda ana shu ko`nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan ish olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni boshlang`ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi etishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgai ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to`liq majmuini o`z ichiga oladi.

Olimlar olib borgan tadqiqotlarning ko`rsatishicha, ishni endi boshlayotgan pedagoglar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiysi ayni shu pedagogik birga ishlash sohasida bo`ladi. Pedagogik texnika to`g`risida yuqorida aytib o`tilgan narsalar malakalarning bu gruppasiga e'tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda ularning tiliga etarli baho bermaslik va buning oqibati sifatida individual pedagogik texnikani tanqidiy tahlil qilishni va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan ishning yuqligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini tushunishga imkon beradi.

Oliy o`quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash o`qituvchiga o`zining kasb yunalishining boshlanishidayoq ko`pgina xatolardan xoli bo`lishda, o`quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo`llari o`qituvchi rahbarligidagi mashg`ulotlar (pedagogik texnikani o`rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o`z-o`zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda kasbiy jihatdan o`z – o`zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o`zida mohir o`qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi o`rin tutadi deb aytish mumkin.

Tashkiliy – metodik jihatdan pedagogik texnika mashg`ulotlarini individual, guruhli yoki ketma-ketlikda o`tkazish mumkin.

Masalan, zarur bilimlar ma'ro`zalarda yoki tegishli adabiyotni mustaqil o`qishda egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim harakatlar (to`g`ri artikulyatsiya,

fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari) ketma-ket o`zlashtirilishi mumkin. Tegishli ko`nikmalarni ishlab chiqish individual ishlashni dastlab o`qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlashni talab qiladi.

Yuqorida aytilganlar insonning ichki holati bilan bog`liq ekan, ularni ijodiy holatni boshqarish texnikasini o`zlashtirishdan boshlash zarur deb hisoblanadi.

O`z-o`zini boshqarishning asosiy usullari quyidagilar: xayrixohlik va optimizmni tarbiyalash, o`z harakatlarini nazorat qilish (muskullar zo`riqishini, harakatlar, nutq, nafas olish tempini yo`lga qo`yish); faoliyatini taqsimlash (mehnat terapiya, musiqaterapiya, biblioterapiyalar, yumor, taqlid o`yin); o`z-o`zini ishontirish; doimiy ravishda autogen mashqlar (psixofizik mashq); relaksatsiya seanslarini (jismoniy va ruhiy dam olish) o`tkazish.

Ammo birinchi mashg`ulotlarda yuzaga keladigan muvaffaqiyatsizliklardan qo`rqmaslik kerak. Chunki bu erda tizimli ish olib borish, psixofizik apparatni mashq qildirish zarurki, u asta-sekinlik bilan pedagogik faoliyatingiz quroliga aylanib boradi.

Hozirgi zamon pedagogika fani o`qituvchining pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning roli beqiyos deb biladi. Chunki u o`qituvchiga o`z gavdasini tuta bilish (mimika, pontamimika), his-tuyg`ularini (emotsiyasini) bosh qara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o`quv faoliyatida, o`qishdan tashqari ishlar jarayonida qo`llash yo`llarini tushuntiradi.

Shunday qilib, pedagogik texnika ma'lum kasbiy va shaxsiy malakalar yig`indisidirki, u o`qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko`rsatish, tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo`l ko`rsatuvchi bo`lib xizmat qiladi.

Ilg`or va novator pedagoglarning ish tajribalarini ko`zatish, mimikasini, ovozini idora qila olish xususiyatlari ko`zatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bunday o`qituvchilar pedagogik texnikani yaxshi egallagan, uning malakalarini o`zlarida aniq shakllantirgan. Va bu malakalarni turli vaziyatlarda qo`llay olish qobiliyatlariga ega bo`lganlar.

Pedagogik mahorat nazariyasini o`rganuvchi va tadbiq qiluvchi olimlarning fikrlariga qaraganda, **pedagogik texnika malakalari ikki guruhga bo`linadi:**

Birinchi guruh malakalari pedagogning o'z xatti-harakatini idora qilishi bilan bog'liqdir. Bunga pedagogning mimik va pantomimik ifodalari, o'z hissiyotini, kayfiyatini boshqarishini, aktyorlik va rejissyorlik mahorat, nutq madaniyati kiradi.

Pedagogik texnikaning **ikkinchi guruhdagi** malakalariga ayrim o'quvchilarga va jamoaga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati, talablar qo'ya olishi, jamoaning ijodiy ishlarini tashkil eta olishi, o'quvchilarni tarbiyalash o'qitishdagi kasbkorlik malakalari kiradi.

Endi o'qituvchi pedagogik texnikasi malakalarining qisqacha xarakteristikasi bilan tanishib chikamiz.

1.O'qituvchi pedagogik texnikasining muhim malakalaridan biri uning nutq texnikasidir.(Nutq tempi, diktsiyasi, tovushining baland. o'rta, past qila olishi va h.k.)

O'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muxim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha 1G`2 foiz o'quv materialini idrok qilish va o'zlashtirishda o'qituvchi nutqiga va uning so'zlarini to'g'ri talaffo`z qilishiga bog'liq.Bolalar o'qituvchining gapini, nutqini nihoyatda ko`zatuvchanlik bilan ko`zatadilar. Mabodo o`Qituvchi so`zlarni noto`g`ri talaffo`z etsa, o`Quvchilar uning ustidan kulib, masxara Qilib yuradilar, lekin past tonda gapiradigan o'qituvchining darsi esa, o'quvchilar uchun zerikarli bo`ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog`ida qichqirib so`zlashish o'quvchilarni bezdiradi, charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko`ngillari soviydi.Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg`ularini so`zda aniq ifodalash malakalariga ega bo`lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi, o'qituvchilarning fikrlari o'quvchilar ongiga tez etib boradi, o'quv materiallarini o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi. O'quvchilar bunday o'qituvchilar darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. Darhaqiqat, diktorlar qodir Mahsumov, Mirzohid Rahimov, O`ktam Jobirov. Levitanlarning xalq qalbidan o`rin olganliklari ham bejiz emas. Shuning uchun o'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinmay ishlashlari, so'zlarning chiroyli,ma'noli, ta'sirchan bo`lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapozonlari, kuchi,tembri, harakatchanligi, diktsiyasini doimo tarbiyalab borishlari lozim.

Ovoz diapozoni deganda biz tovush hajmini tushunamiz. Uning chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapozonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past tonda soʻzlashish idrokni boʻshashtiradi va susaytiradi.

Tembr-tovushning goʻzalligi, chiroyliligidir. Oʻqituvchi tovush diapozonini, uning tembri bilan bogʻlab ishlatsa gaplari chiroyli, mayli, jozibali chiqib, tinglovchilarni oʻziga tortadi va materiallar yaxshi idrok qilinadi.

Oʻqituvchining ovoz diktsiyasi soʻzlari aniq, toʻgʻri, eshitarli va tushunarli bayon qilishida namoyon boʻladi. Toʻgʻri ovoz diktsiyasiga ega boʻlgan oʻqituvchi soʻzlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jagʻ ishtirok etadi. Oʻqituvchi ifodali gapirishi, soʻzlarni talaffoʻz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim.

Oʻqituvchi materiallarni aniq, toʻgʻri, tushunarli, ifodali bayon qilishda ovoz ritmi ham muhim ahamiyat kashf etadi. Ilmiy tadqiqot ishlari shundan dalolat bermoqdaki, ruslar bir minutda 120, inglizlar 120 dan 150 gacha, frantsuzlar 110 soʻzni talaffoʻz qilarkanlar. Oʻrtacha, hammaga tushunarli boʻlishi uchun oʻqituvchi 5-6 sinflarda 60 soʻzni 10-11 sinflarda 75-80 soʻzni talaffoʻz etsa talabga muvofiq boʻladi. Oʻqituvchi nutqini loʻnda, aniq, puxta, chiroyli bayon etsa u tinglovchilarga shuncha tushunarli boʻladi va ular qalbida oʻzoq saqlanadi.

Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, oʻqituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diktsiyasi, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur.

2.2.Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda tajriba mashg'ulotlarining o'rni (pedagogik mahorat fani misolida).

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogic texnikani shakllantirishda tajriba mashg'ulotlarining o'rni juda katta. Pedagogik mahorat fanini o'rganishda 12 soat tajriba soati bo'lib bu mashg'ulotlar orqali talabalarda pedagogic texnika shakllanib boradi.

O`QITUVCHINING PEDAGOGIK MEHNATI MADANIYATI

Maqsadi: talaba pedagogik mehnat madaniyati, o'qituvchining tashki qiyofasi, pedagogik muomalasi, uz-uzini boshkara olishi va nutk madaniyati haqida fikr-muloxaza yuritish orkali mantiqiy fikrlash kobiliyatlarini shakllantirish.

Vazifasi: "Pedagogik madaniyat" va "Pedagogik mehnat madaniyati" tushunchalarini anglash. O'qituvchining pedagogik mehnat madaniyatini tahlil kilish. Uzini boshkara olish, tashki qiyofasi, pedagogik muomalasi, nutk madaniyatiga oid trening utkazish.

Jixozlanishi: Adabiyotlar, moxir pedagoglarning fotosuratlarini

Tayanch tushunchalar: pedagogik madaniyat, pedagogik mehnat madaniyati, uzini boshkarish, tashki qiyofa, pedagogik muomala, pedagogik mehnat turlari

Mashg'ulot mazmuni: 1. Nazariy tushunchalarni muxokama kilish.

2. O'qituvchining pedagogik mehnati madaniyatiga oid malaka va kunikmalar xosil kilish. 3. Pedagogik mehnat madaniyatiga oid trening utkazish

Mashg'ulotning borishi:

1. Nazariy tushunchalarni muxokama kilish.

1-vazifa. Kuyidagi tushunchalarga yozma izox bering:

"Pedagogik madaniyat"

"Pedagogik mehnat madaniyati"

"Pedagogik muomala"

"Nutm madaniyati"

2-vazifa. Pedagogik madaniyat” va “Pedagogik mehnat madaniyati” usullarini yozing.

3-vazifa. Pedagogning pedagogik mehnati madaniyatini rivojlantirish uchun to`siq buladigan omillarni ayting.

4-vazifa. Beshinchisi ortikcha metodi yordamida uzlashtirilgan bilimlarni mustaxkamlash.

5-vazifa. Kuyidagi unsurlarni tulik ta'riflab uting:

Bilimlilik madaniyati

Dunyokarash madaniyati

Fikrlash madaniyati

Xis etish madaniyati

Baxolash madaniyati

Mulokot madaniyati

Tashkiliy madaniyat

Baxolash: Ballar kuyib boriladi

Mashg`ulotni yakunlash: O`qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.Kamchiliklar va yutuklar aytiladi.

PEDAGOGIK TEXNIKA VA O`QITUVCHINING MAHORATI.

Mashg`ulotning maqsadi:

Talabalarga pedagogik texnikaga oid ko`nikmalarni shakllantirish, pedagogik texnikaning tarkibiy qismlariga oid mashqlar bilan tanishtirish.

Mashg`ulotning vazifalari:

1. Pedagogik texnikaga oid nazariy bilimlarni tekshirish.
2. Fonatsion nafas olishni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish.
3. Ovozni, mimika, pantomimikani rivojlantirish uchun mashqlarni bajarish.
4. Mikrodars o`tish.

Mashg`ulotning jihozlanishi:

Ma'ruza mavzulari, savollar yozilgan kartochkalar, didaktik tarqatma materiallar.

Tayanch tushunchalar:

pedagogik texnika, mimika, pantomimika, nutq, nafas olish, fonatsion nafas olish, ovoz ko`lami, nutq texnikasi.

Mashg`ulotning borishi:

O`rgan "pedagogik texnika" mavzusi bo`yicha. O`rgan seminar mashg`uloti bo`yicha 5-6 min. takrorlash o`tkaziladi. Bu seminar mashg`ulotini amalda bugungi mashg`ulotda ko`rib chiqish aytiladi.

I. Nazariy bilimlarni tekshirish.

Savol-javob tarzida suhbat uyushtiriladi.

Talabalarga quyidagi savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi:

1. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari nimadan iborat?
3. Nutq malakalari deganda nimani tushunasiz?
4. Mimika degani nima?
5. Pantomimika nima?
6. Ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga nimalar kiradi?
7. Nutq texnikasi nimalardan tashkil topadi?
8. Pedagogik texnika qanday xususiyatlarga ega?
9. Pedagogik texnikani qanday egallash mumkin?
10. Yosh o`qituvchilar pedagogik texnika malakalarini egallashi shartmi?
11. Yosh o`qituvchilar qanday tipik xatolarga yo`l qo`yadilar?
12. O`qituvchining tashqi qiyofasi qanday bo`lishi kerak?
13. Fonatsion nafas olish oddiy nafas olishdan nimasi bilan farqlanadi?

II. Fonatsion nafas olishni rivojlantiruvchi mashqlar.

Nafas olish texnikasini egallash jismoniy va emotsional zo`riqishni bartaraf etishdan boshlanadi. Bu fonatsion yo`llarni bo`shashtiradi, nutq jarayonida hosil bo`ladigan to`siqlarni ochadi.

Har bir talabaga quyidagi kartochkalar tarqatiladi.

Talabalar vazifani bajarib bo`lgach baholanadilar.

1 kartochka. “Gullar do`koni”- mashqi.

Tik turgan holda chap qo`lni qoringa o`ng qo`lni qovurg`alar ustiga qo`ying. Nafas chiqaring (P-FF). – qorin ichiga kiradi.

Faraz qiling:

Gulni hidlayapsiz-nafas oling. Qorin kattalashadi, qovurg`alar kengayadi. Nafas olishda qoring kuch bering(yo`tal tutmochi bo`lganday holat yuz beradi.) Shundan so`ng sekinlik bilan nafas chiqaring (mayin-bir tekis P-ff, bunda qorin kichrayadi, kovurg`alar pasayadi. Nafas olish qisqa , nafas chiqarish uzun bo`lsin.) Mashqni 2-3 marta takrorlang.

2-kartochka. “Sham” mashqi.

Bu mashq tekis, jadal nafas chiqarishni maromlashtiradi. Kengligi 2-3 sm, uzunligi 7-10sm.li qog`oz oling, uni sham deb tasavvur qiling va uni puflang: u sizdan uzoqlashadi— shamning olovi o`chganday. Bunday “sham” orqali siz ko`zingiz bilan chiqayotgan havo oqimi tekisligini kuzatishingiz mumkin; Nafas chiqarish tekis bo`lsa— qog`oz bir tomonga egilib turadi. Diafragma va qovurg`alar aro mushaklar sohasida oz-moz zo`riqish borligini sezasiz. Bu mashq chiqayotgan havoning tekisligini ta'minlaydi.

3-kartochka. “Тешик копток” маш=и.

Oxirigacha kuchsizlanmaydigan tekis, jadal nafas chiqarish.

Faraz qiling: qo`lingizda katta rezina koptokni ushlab turibsiz, u teshildi. Agar uni bossangiz “SSSS....” degan tovush chiqadi. Kaftingiz bilan sekin, zo`riqishsiz “koptokni” siqing— havo ko`proq chiqsin(havoni o`pkadan chiqaring). Qo`llaringiz asta-sekin birlashadi. Xavo chiqib ketdi. Mashqni bir necha marta takrorlang. Uni engillik bilan, qo`lni zo`riqtirmasdan bajaring.

4-kartochka. “Ovozlarga taqlid” mashqi.

Nafas chiqarishning turlariga mo`ljallangan mashq. Tabiat va hayotdagi turli ovozlarni esga tushiring va bajaring:

- shamol: ssss...;
- o`rmon shovqini: shshsh...;
- qo`ng`iz yoki ari g`uvillashi: zzzz..., jjjz.....;

- qarg`a qag`illashi: qarr!qarr!....
- mator ovozi: rrrr...;
- ot chopishi: tpr!tpr!tpr!...; va x.k. davom ettiring.

Bunday diafragma ishiga diqqat bilan e'tibor bering: qachon kam zo`riqadi, qachon zo`riqish kuchayadi, qachon kuch bilan xavo chiqadi.

5-kartochka: “Yo`qlama” mashqi.

Har bir o`quvchining familiyasini ayting, nigohingiz bilan kuzating, o`ziga xos xususiyatlarni eslab qoling, joyiga o`tirishini so`rang. Har bir familiyani aytganigizda nafas oling. So`ng 3 –4 ta familiyani aytib nafas chiqaring.

Baholash. Talabalar tomonidan ishni asoslash ko`nikmasi, sinf bilan muloqot, nafas olish-chiqarish tekisligi, o`zini erkin tutishi kabi mezonlar orqali baholanadilar.

III. Ovozni va mimikani rivojlantirish uchun mashqlar.

Talabalarga quyidagi mashqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

Talabalar mashqlar so`ngida baholanadilar.

6-kartochka: O`quvchiga murojaat qiling:

a) “Bu yoqqa kel!” — koridorda shovqin solayotgan bolani to`polon qilmaslikga undash ohangi.

B) “Bu yoqqa kel!” — yaxshi javobi uchun rag`batlantiring .

V) “Bu yoqqa kel!” — xaritani devorga osishga yordamlashishini so`rang. Ham ovoz, ham mimika bilan ijro eting. O`tirgan talabalar o`qituvchi ohangida qanday murojaat borligini aniqlaydilar.

7-kartochka : “Havodagi sharlar” mashqi.

Bu mashq orqali ovoz diapazoni (ko`lami) rivojlantiriladi.

Faraz qiling: Uzoq osmonda ko`p sharlar uchib yuribdi. Ularning sonini aniqlab, sanab chiqing.

8-kartochka: “Chaqirish” mashqi.

Bu mashq orqali ovoz ko`lami rivojlantiriladi. Past ovozda uzoqdagi odamni chaqirish – ya'ni ovoz “o`zingizdan emas”, balki “o`zingizga” qarab yo`nalsin. Bu mashq auditoriya diqqatini o`zingizga tortish uchun bajariladi.

Faraz qiling:

A) Darslar boshlangan . O`qituvchilarga halaqit bermasdan, koridor boshiga turgan holda, asta koridorning u boshida turgan navbvtchini chaqiring: “Lola Egamberdieva!”.

B) Tanaffus. Xalaqit berishdan cho`chimasdan chaqiring.

V) Sinfda kontrol ishi ketayapti.Sinfda jimlik. Chaqiring.

9-kartochka: “Tez aytishlar” mashqi

Tez aytishda so`zlarni g`uldiramasdan, ma'nosini bilib ayting. Avval sekin, so`ng tezlashgan suratda mantiqiy urg`u berib ayting.

1. “Oq choynakka ko`k qopqoq,
ko`k choynakka oq qopqoq”.
2. “Toshtemir tog`am tog` teppasida,
traktorni tirillatib turibdi”.
3. “Qishda kishmish pishmashmish,
pishsa kishmish qishmashmish.”
5. “Non yasashasizmi, sholi sanashasizmi?”

10-kartochka.mimika va pantomimikaga oid mashq.

Faraz qiling: Ovoz eshitilmaydigan darajadagi oyna devor oldida turibsiz. Oynaning narigi tomonida turgan o`quvchiga muhim gapni aytmoqchisiz, Aytmoqchi bo`lgan gapingizni (xabarni) mimika va pantomimika bilan ijro eting. Nima haqida xabar bermoqchi ekanligingizni oldindan o`rtog`igiz bilan kelishib olmang.

O`tirgan talabalar nima demoqchi ekanligingizni aniqlaydilar

11-kartochka.O`qituvchi bo`lib kirasiz.

“Assalomu alaykum!”so`zini 10 xil ohangda aytishga harkat qiling:

Qo`rquv, mamnunlik, tartiblilik, hayrat, jahl bilan, quvonch bilan, hohlamay,g`urur bilan, kinoya bilan, befarqlik bilan. O`tirganlar qanday ohangda aytilganini topadilar va bunday munosabatning sababaini aytadilar

.Mikrodars o`tish.

Mikrodars o`tishda talabalar nutq malakalari tahlili, nutq vositalaridan unumli foydalanish, nutq madaniyati va texnikasi tahlili; nutqning undash, ishontirish, ta'sir

etuvchi shakllaridan foydalanish; o`qituvchining tashqi ko`rinishi (mimika, harakat, o`zini tutishi); o`zini boshqarishi; hatti-harakatini boshqarish kabi mezonlar orqali baholanadilar.

Talabalarga quyidagi kartochkalar tarqatiladi:

12-kartochka .

”Daqiqa-ko`pmi yoki kam” mavzusida sinf majlisi o`ting.

13-kartochka.

“Kasb tanlashga yo`naltirish maqsadida pedagogik mehnatning go`zalligi haqida o`quvchilar bilan suhbat o`tkazing.

14-kartochka.

Sinf majlisi o`tkazing va o`quvchilarni “Kuch-bilim va tafakkurda” ekanligiga ishontiring.

15-kartochka.

“Zamonaviylik deganda nimani tushunasiz? ” mavzusida tarbiyaviy soat o`tkazing.

16-kartochka.

“Haqiqiy o`zbek yigiti qanday bo`lishi kerak?” mavzusida suhbat o`tkazing.

17-kartochka.

“Inson go`zalligi nimada? ” mavzusida dars o`ting.

18-kartochka.

“Biz qanday yashayapmiz?” mavzusida tarbiyaviy soat o`tkazing.

19-kartochka.

”Bolalar va televizor” mavzusida ota-onalar majlisini o`tkazing.

20-kartochka.

O`quvchilar sizdan “San'at insonga nimaga kerak? ” degan savolga javob olmoqchilar.

Baholash.

Barcha kartochkalar bo`yicha talabalar baholanadilar . Bal qo`yiladi, yaxshi qatnashganlar rag`batlantiriladilar.

Mashg`ulotni yakunlash.

O`qituvchi tomonidan mashg`ulotning, talabalarning yutuq va kamchiliklari aytib

o`tiladi. Uyg`a vazifa qilib “Nutq texnikasi” seminar mashg`ulot rejalari yozdiriladi.

«O`RTA MAXSUS VA KASB HUNAR TA'LIMIDA DARS TIPI»

Mashg`ulot maqsadi: Talabalar tomonidan o`rta maxsus va kasb hunar ta'limida o`qituvchi mahorati haqidagi bilimlarni mustahkamlash; darsda o`qituvchining ijodiy holatini tashkil etish bo`yicha ko`nikmalarni shakllantirish.

Mashg`ulotning vazifalari: O`qituvchining ijodiy holatini boshqarish ko`nikmalarini rivojlantirish, o`quv materialini saralashni o`zlashtirish, o`quvchilar bilan suhbat olib borish mahoratini oshirish, o`zini o`qituvchi sifatida sinab ko`rish.

Jihozlanishi: Mavzuga oid savollar yozilgan kartochkalar, didaktik tarqatma materiallar, maktab darsliklari.

Tayanch tushunchalar: O`qituvchi ijodkorligi, ijodiy holat, aktyorlik unsuri, bilish faoliyati, bilimlarni faollashtirishning usul va vositalari, dars bosqichlari, dars tipi.

Mashg`ulot mazmuni:

O`qituvchining ijodiy holatini tashkil etish bo`yicha nazariy bilimlarni tekshirish.

- I. Verbal va noverbal reaksiyalarni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish.
- II. Kichik darslar o`tkazish.

Mashg`ulotning borishi:

O`tgan mashg`ulot bo`yicha savol-javob tarzida 5 minutlik takrorlash o`tkaziladi.

I. O`qituvchining ijodiy holatini tashkil etish bo`yicha nazariy bilimlarni tekshirish.

1-vazifa.Savol-javoblar asosida suhbat tashkil etish. Talabalarga quyidagi savollar beriladi:

1. O`qituvchining ijodiy holati deganda nimani tushunasiz?
2. O`qituvchining ijodiy holatini qanday psixik xususiyatlar boshqaradi?
3. Qanday elementlar uyg`unligi o`qituvchining ijodiy holatini tashkil etadi?

4. O`qituvchining dars jarayonidagi ehnati qanday tashkil etiladi?
5. O`quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o`qituvchining mahorati nimada ko`rinadi?
6. Darsni rejalashtirish qanday bosqichlardan tashkil topadi?
7. Dars tiplari haqida nima bilasiz?
8. O`quv jarayoni qanday komponentlarni o`z ichiga oladi?
9. $O`J = M + O`F + B$ formulasi nimani anglatadi?
10. O`quvchida o`qishga qiziqish uyg`otish uchun o`qituvchi qanday qoidalarga asoslanishi kerak?

2-vazifa. «Beshinchisi ortiqcha» metodi yordamida bilimlarni mustahkamlash. Talabalarga quyidagi vazifa topshiriladi: mavzuga taalluqli bo`lmagan tushunchani aniqlang va uni ro`yxatdan chiqaring, javobingizni izohlang.

1-kartochka.

Pedagogning ijodiy jarayonining ilmiy-izlanuvchi(antiqiy-pedagogik) turiga quyidagi komponentlar kiradi: fan bo`yicha ilmiy bilimlar, pedagogik-psixologik bilimlar, o`z ruhiy holatini boshqarish, pedagogik vazifalarni ilmiy hal eta olish.

2-kartochka.

Pedagogning ijodiy jarayonining sub'ektiv-emotsional turiga quyidagilar kiradi: o`qituvchining psixo-fizik tabiati, muloqot madaniyati, ijodiy holati, o`z ruhiy holatini boshqara olishi, pedagogik vazifalarni ilmiy tahlil qila olish.

3-kartochka.

Pedagogning ijodiy holatining tashqi omiliga: o`quvchilar; pedagogik jamoa; o`qituvchi faoliyati sharoiti; ijodiy salohiyat ta'sir etadi.

4-kartochka.

Pedagogning ijodiy holati ichki omillariga Quyidagilar kiradi: dunyoQarash; umumiy kasbiy pedagogik yo`nalganlik; mehnati va kasbidan QoniQish; ilmiy,

metodik, psixologik tayyorgarlik darajasi; pedagogik kollektiv; ijodiy salohiyat; axloqiy fazilatlar; jismoniy holat; nerv tizimining tipologik xususiyatlari.

3-vazifa. Talabalarga «Tugallanmagan matn» metodi asosida kartochkalar beriladi. Guruhlararo baholanadilar.

5-kartochka.

O`tkir zehn, kuzatuvchanlik ijodning hamma turi uchun kerak. Biroq hayotni ko`ra olishda ular o`z xususiyatiga ega. Musiqachida eshitish zehni rivojlangan bo`lishi kerak. U ohanglarni ilg`ay olish qobiliyatiga ega bo`lishi kerak. Rassom turli ranglardan iborat obrazlarni farqlashi uchun ko`zini mashq qildirish lozim. O`qituvchi va aktyorga kelsak, ularda birinchi navbatda... rivojlangan bo`lishi lozim.

6-kartochka.

Pedagogda darsgacha bo`lgan ijodiy holat: uni darsda ham ta'minlashga asos bo`ladi; darsning vazifalarini anglaydi; o`qituvchining ma'naviy va jismoniy kuchi bir tekis taqsimlanadi; ...

7-kartochka.

O`qituvchining darsgacha bo`lgan ijodiy holatining bosqichlari quyidagilar: dars mazmuni va uni rejalashtirish metodikasida o`ziga tortuvchi ijodiy holatni yuzaga keltirish; ...

8-kartochka.

O`qituvchi ijodiy holatini boshqarish darajalari quyidagilar:

I daraja – pedagog o`z ijodiy holatini boshqara olmaydi, ...

II daraja - pedagog o`z ijodiy holatini boshqara oladi, ...

III daraja - pedagog ijodning barcha bosqichlarida o`z ijodiy holatini boshqara oladi, ...

II. Verbal va noverbal reaksiyalarni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish. Talabalarga vaziflar yozilgan kartochkalar beriladi, ular o`qituvchi rolini bajaradilar. Alohida baholanadilar.

9-kartochka.

Stolda o`tirib yozayapsiz. Eshik ochiladi. Boshingizni ko`tarib o`quvchiga qaraysiz:

- hayron bo`lib;
- ranjib;
- g`azab bilan;
- «Nima bo`ldi?» deb so`raganday;
- «Hayriyat!» deb hursandlik bilan
- .

10-kartochka.

O`quvchi sizga «Uy vazifasini tayyorlamadim», deydi. Sizning munosabatingiz:

- achinaman;
- jazolayman;
- yana nima der ekan;
- «Buni kutmagan edim!»-deb hayronsiz;
- «Bu nechanchi marta takrorlanishi!»- deb hayronsiz;
- bu seni muammong.

11-kartochka.

Doskaga yozayapsiz. O`quvchilar daftarlariga siz bilan baravar yozishi kerak. Birdan «shovqin» eshitib, orqaga o`girilasiz:

- «Nima bo`ldi?»;
- «Kim yozishni boshlamadi?»;
- «Jim bo`lsangizchi?»;
- «Jimlik kutyapman!»;

- «Jim! Darsda shovqin solish mumkin emas!»;

- «Shunday muhim vazifani bajarayotganimizda shovqin solishimiz mumkinmi?»»

12-kartochka.

O`quvchilar nazorat ishi yozayaptilar. Siz shpargalkadan foydalanayotgan o`quvchini ko`rib qoldingiz. Nigohlaringiz to`qnashadi. Siz:

- jahlingiz chiqadi;

- qat'iy ta'qiqlaysiz;

- kinoyali achinasiz;

- hayratdasiz;

- hayronsiz;

- jahl bilan «qani keyin nima bo`lar ekan».

13-kartochka.

O`quvchi doskada vazifani bajarib bo`ldi. Sizning munosabatingiz:

- hammasi to`g`ri;

- barakalla;

- yaxshi natijaga erishganidan mamnunsiz;

- hayronsiz: to`g`ri bajardim deb o`ylayapsanmi?

- xafasiz, jazolamoqchisiz;

- kinoyali – yaxshi!

III.Kichik darslar o`tkazish.

O`qituvchi rolini bajaradigan talabalarga vazifalar oldindan bo`lib berilgan. Kerakli jihozlar, ko`rgazmali qurollar olib kelish aytilgan. Dars bosqichlari epizodlari sahnalashtiriladi(dars boshlanishi, o`tgan dars mavzusini takrorlash, yangi mavzu bayoni, darsni mustahkamlash, o`quvchilarni baholash, uyga vazifa berish, darsni yakunlash). Qolgan barcha talabalar o`quvchi rolini bajaradilar. Dars tugagandan so`ng «o`qituvchi»ning yutuq va kamchiliklari muhokama qilinadi, baholanadilar.

Baholash. Har bir vazifa yuzasidan ballar qo`yib boriladi. Mashg`ulot so`ngida ballar umumlashtiriladi. Yaxshi qatashgan talabalar rag`batlantiriladi.

Uyga vazifa. Maktab islohotiga bag`ishlangan kichik insho yozib kelish. Quyidagi savollardan foydalanish mumkin: O`z sinfim, maktabim kelajakda qanday bo`ladi? O`z mehnatim bilan qanday yangilik kiritmoqchiman? Nima uchun? Maktabga qanday shaxsiy dasturim bilan kelaman? Uni qanday amalga oshiraman? Talabalarga inshoni baholash mezoni aytib o`tiladi.

Mashg`ulotni yakunlash. O`qituvchi tomonidan umumlashtiriladi. Yutuq va kamchiliklar aytiladi.

7-vazifa.

O`z-o`zini ruhlantirish, yangi kunni boshlash bo`yicha E.Xabbarning maslahatini o`qib, uni I shaxs birlikda so`zlab berishga xarakat qiling.

«Har kuni uydan chiqqaningizda dahaningizni ko`taring, boshingizni g`oz tuting va o`pkalaringizni oxirigacha havo bilan to`ldiring; quyosh nuridan miriqib bahra oling, do`stlaringizni jilmayish bilan olqishlang va samimiylik bilan ko`rishing. Sizni noto`g`ri tushunishlari mumkin deb qo`rqmang va bir daqiqa bo`lsa ham dushmanlaringiz haqida o`ylab vaqtni bekor ketkazmang. Nima qilmoqchiligingizni dastlab aqlan uzil-kesil hal qilib oling, so`ngra orqaga tashlamasdan qo`yilgan maqsad sari harakat qiling. O`zingiz amalga oshirishni xohlagan buyuk hamda yaxshi haqida o`ylang va shunda Siz vaqt o`tishi bilan o`z xohishingizni ro`yobga chiqarishgi zarur bo`ladigan har qanday imkoniyatlaringizdan o`zingiz bilmagan holda foydalanayotganingizni sezib qolasiz. Fikran o`zingiz istagan iste`dodli, jiddiy va ishi o`ngidan keladigan odamning suratini chizing va fikrlaringiz soatma-soat sizni xuddi shunday odamga aylantiradi. Fikr eng katta kuchdir. Ruhingiz doim ko`tarilgan holatda bo`lsin – har doim mard, samimiy va yaxshi kayfiyatda bo`ling. Har bir narsa xohish orqali amalga oshiriladi va har qanday samimiy iltimos bajariladi. Yuraklarimiz buyurgan ishni qilaylik! Boshimizni g`urur bilan baland ko`taraylik».

8-vazifa.

Muvaffaqiyatga erishish uchun odamlarni qanday ilhomlantirish mumkinligi haqidagi matnni o`qing va pedagogik vaziyatga baho bering.

«Yarim asr muqaddam Neapoldagi fabrikadan birida o`n yoshli bola ishlardi. U qo`shiqchi bo`lishni juda istardi, lekin birinchi o`kituvchisi uni bundan sovutgan edi. «Sen qo`shiq aytishing mumkin emas», - degandi u – Sening ovozing mutlaqo yo`q. Ovozing xuddi oynani sindirib yuborgudek esuvchi shamol tovushiga o`xshaydi».

Lekin bolaning onasi – oddiy dehqon ayol uni bag`riga olib ko`nglini ko`tarardi. «Men bilaman, sen qo`shiq aytishing mumkin, - derdi u. – Men yutug`ingni ko`rib turibman!» Ona o`z o`g`lining darsiga pul to`lash uchun yalangoyoq yurib tirikchilik qilardi. Onaning maqtovlari, ma`qullab-quvvatlashlari bola hayotini o`zgartirib yubordi. Ehtimol siz ham bu qo`shiqchi haqida eshitgandirsiz? Uni Enriko Koruzo deb atashadi».

<p>Savol</p> <p>O`qituvchining ijodiy holati deganda nimani tushunasiz?</p>	<p>Savol</p> <p>O`qituvchining ijodiy holatini qanday psixik xususiyatlar boshqaradi?</p>
<p>Savol</p> <p>Qanday elementlar uyg`unligi o`qituvchining ijodiy holatini tashkil etadi?</p>	<p>Savol</p> <p>O`qituvchining dars jarayonidagi ehnati qanday tashkil etiladi?</p>

Savol O`quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o`qituvchining mahorati nimada ko`rinadi?	Savol Darsni rejalashtirish qanday bosqichlardan tashkil topadi?
Savol Dars tiplari haqida nima bilasiz?	Savol O`quv jarayoni qanday komponentlarni o`z ichiga oladi?
Savol O`J = M + O`F = B formulasi nimani anglatadi?	Savol O`quvchida o`qishga qiziqish uyg`otish uchun o`qituvchi qanday qoidalarga asoslanishi kerak?
Savol O`z-o`zini tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?	Savol O`z-ustida ishlash deganda nimani tushunasiz?
Savol O`z-ustida ishlashni shakllantirish yo`llari qanday?	Savol O`z-o`zini kuzatish deganda nimani tushunasiz?
Savol O`z-o`zini sinash nima?	Savol O`z-o`zini tanqid qilish deganda nimani tushunasiz?
Savol O`z-o`zini taqdirlash deganda nimani tushunasiz?	Savol O`z harakatlarini tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
Savol O`z-o`zini anglash deganda nimani tushunasiz?	Savol O`z-o`zini ijodiy namoyon qilish degandachi?
Savol O`z-o`zini ishontirish deganda nimani tushunasiz?	Savol O`qituvchi o`z-o`zini rivojlantirishi uchun to`siq bo`ladigan omillarni ayting.
Savol Insonning o`z bilimini doimiy to`ldirib borish ehtiyoji, sizningcha, hozirgi zamonning qaysi omillari bilan bog`liq?	Savol O`z-o`zingizni takomillashtirish orqali ertaga maktab yoki kollejda nimalar bera olasiz?

<p align="center">1-kartochka.</p> <p align="center">Ortiqcha terminni olib tashlang.</p> <p>Pedagogning ijodiy jarayonining ilmiy-izlanuvchi(antiqiy-pedagogik) turiga quyidagi komponentlar kiradi: fan bo`yicha ilmiy bilimlar, pedagogik-psixologik bilimlar, o`z ruhiy holatini boshqarish, pedagogik vazifalarni ilmiy hal eta olish.</p>	<p align="center">2-kartochka.</p> <p align="center">Ortiqcha terminni olib tashlang.</p> <p>Pedagogning ijodiy jarayonining sub'ektiv-emotsional turiga quyidagilar kiradi: o`qituvchining psixo-fizik tabiati, muloqot madaniyati, ijodiy holati, o`z ruhiy holatini boshqara olishi, pedagogik vazifalarni ilmiy tahlil qila olish.</p>
<p align="center">3-kartochka.</p> <p align="center">Ortiqcha terminni olib tashlang.</p> <p>Pedagogning ijodiy holatining tashqi omiliga: o`quvchilar; pedagogik jamoa; o`qituvchi faoliyati sharoiti; ijodiy salohiyat ta'sir etadi.</p>	<p align="center">4-kartochka.</p> <p align="center">Ortiqcha terminni olib tashlang.</p> <p>Pedagogning ijodiy holati ichki omillariga quyidagilar kiradi: dunyoqarash; umumiy kasbiy pedagogik yo`nalganlik; mehnati va kasbidan qoniqish; ilmiy, metodik, psixologik tayyorgarlik darajasi; pedagogik kollektiv; ijodiy salohiyat; axloqiy fazilatlar; jismoniy holat; nerv tizimining tipologik xususiyatlari.</p>
<p align="center">5-kartochka.</p> <p align="center">Fikrni davom ettiring.</p> <p>O`tkir zehn, kuzatuvchanlik ijodning hamma turi uchun kerak. Biroq hayotni ko`ra olishda ular o`z xususiyatiga ega. Musiqachida eshitish zehni rivojlangan bo`lishi kerak. U ohanglarni ilg`ay olish qobiliyatiga ega bo`lishi kerak. Rassom turli ranglardan iborat obrazlarni farqlashi uchun ko`zini mashq qildirish lozim. O`qituvchi va aktyorga kelsak, ularda birinchi navbatda... rivojlangan bo`lishi lozim.</p>	<p align="center">6-kartochka.</p> <p align="center">Fikrni davom ettiring.</p> <p>Pedagogda darsgacha bo`lgan ijodiy holat: uni darsda ham ta'minlashga asos bo`ladi; darsning vazifalarini anglaydi; o`qituvchining ma'naviy va jismoniy kuchi bir tekis taqsimlanadi; ...</p>
<p align="center">7-kartochka.</p> <p align="center">Fikrni davom ettiring.</p> <p>O`qituvchining darsgacha bo`lgan ijodiy holatining bosqichlari quyidagilar: dars mazmuni va uni rejalashtirish metodikasida o`ziga tortuvchi ijodiy holatni yuzaga keltirish; ...</p>	<p align="center">8-kartochka.</p> <p align="center">Fikrni davom ettiring.</p> <p>O`qituvchi ijodiy holatini boshqarish darajalari quyidagilar: I daraja – pedagog o`z ijodiy holatini boshqara olmaydi, ... II daraja - pedagog o`z ijodiy holatini boshqara oladi, ... III daraja - pedagog ijodning barcha</p>

	bosqichlarida o`z ijodiy holatini boshqara oladi, ...
<p>9-kartochka. Mimika va pantomimika bilan ijro eting.</p> <p>Stolda o`tirib yozayapsiz. Eshik ochiladi. Boshingizni ko`tarib o`quvchiga qaraysiz:</p> <ul style="list-style-type: none"> - hayron bo`lib; - ranjib; - g`azab bilan; - «Nima bo`ldi?» deb so`raganday; - «Hayriyat!» deb hursandlik bilan. 	<p>10-kartochka. Мимика ва пантомимика билан ижро этинг.</p> <p>O`quvchi sizga «Uy vazifasini tayyorlamadim», deydi. Sizning munosabatingiz:</p> <ul style="list-style-type: none"> - achinaman; - jazolayman; - yana nima der ekan; - «Buni kutmagan edim!»-deb hayronsiz; - «Bu nechanchi marta takrorlanishi!»- deb hayronsiz; - bu seni muammong.
<p>11-kartochka. Mimika va pantomimika bilan ijro eting.</p> <p>Doskaga yozayapsiz. O`quvchilar daftarlariga siz bilan baravar yozishi kerak. Birdan «shovqin» eshitib, orqaga o`girilasiz:</p> <ul style="list-style-type: none"> - «Nima bo`ldi?»; - «Kim yozishni boshlamadi?»; - «Jim bo`lsangizchi?»; - «Jimlik kutyapman!»; - «Jim! Darsda shovqin solish mumkin emas!»; - «Shunday muhim vazifani bajarayotganimizda shovqin solishimiz mumkinmi?» 	<p>12-kartochka. Mimika va pantomimika bilan ijro eting.</p> <p>O`quvchilar nazorat ishi yozayaptilar. Siz shpargalkadan foydalanayotgan o`quvchini ko`rib qoldingiz. Nigohlaringiz to`qnashadi. Siz:</p> <ul style="list-style-type: none"> - jahlingiz chiqadi; - qat'iy ta'qiqlaysiz; - kinoyali achinasiz; - hayratdasiz; - hayronsiz; - jahl bilan «qani keyin nima bo`lar ekan».

<p style="text-align: center;">13-kartochka.</p> <p>Mimika va pantomimika bilan ijro eting.</p> <p>O`quvchi doskada vazifani bajarib bo`ldi. Sizning munosabatingiz:</p> <ul style="list-style-type: none"> - hammasi to`g`ri; - barakalla; - yaxshi natijaga erishganidan mamnunsiz; - hayronsiz: to`g`ri bajardim deb o`ylayapsanmi? - xafasiz, jazolamoqchisiz; - kinoyali – yaxshi! 	<p style="text-align: center;">4-vazifa.</p> <p>Pedagogning kasbiy faoliyati va muloqotini ijodiy tashkil qilish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqing va mezonlarni asoslab bering.</p> <p style="text-align: center;">Tavsiyalar Mezonlar</p> <p>O`qituvchi- tadqiqotchi Tarbiyachi- tadqiqotchi Metodist- tadqiqotchi Olim- tadqiqotchi</p>
<p style="text-align: center;">3-vazifa.</p> <p>Pedagogning o`z-o`zini ijodiy rivojlantirishi uchun to`siq bo`ladigan omillarni ayting.</p>	<p style="text-align: center;">2-vazifa.</p> <p>Pedagogning o`z-o`zini tarbiyalashi va o`z-o`zini takomillashtirish usullarini yozing.</p>
<p style="text-align: center;">5-vazifa.</p> <p>O`z-o`zini tarbiyalash dasturlarini tuzing. Diqqatni tarbiyalash.</p>	<p style="text-align: center;">5-vazifa.</p> <p>O`z-o`zini tarbiyalash dasturlarini tuzing. Maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalash.</p>
<p style="text-align: center;">5-vazifa.</p> <p>O`z-o`zini tarbiyalash dasturlarini tuzing. Optimizmni tarbiyalash.</p>	<p style="text-align: center;">6-vazifa.</p> <p>O`z-o`zini ishontirish dasturini tuzing. Kayfiyatni ko`tarish.</p>
<p style="text-align: center;">6-vazifa.</p> <p>O`z-o`zini ishontirish dasturini tuzing. Dam olish.</p>	<p style="text-align: center;">6-вазифа.</p> <p>O`z-o`zini ishontirish dasturini tuzing. Irodani tarbiyalash.</p>
<p style="text-align: center;">6-vazifa.</p> <p>O`z-o`zini ishontirish dasturini tuzing. Qat'iyatsizlikni engish.</p>	

«O`Z-O`ZINI TARBIYALASH – JARAYON VA FAOLIYAT SIFATIDA»

Maqsadi: Pedagogning o`z-o`zini tarbiyalashi va o`z ustida ishlashi murakkab, ijodiyot izlanishni talab etuvchi jarayon ekanligini talabalar anglab etishi; «o`z-o`zini tarbiyalash», «o`z ustida ishlash», «o`z-o`zini bilish», «o`ziga baho berish» tushunchalarini o`zlashtirish.

Vazifalari: O`z-o`zini tarbiyalash pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy sharti ekanligini tushunish; o`z-o`zini tarbiyalash metod, vositalaridan foydalanishga o`rgatish; o`z-o`zini boshqarish treninglarini o`tkazish.

Jihozlanishi: Lektsiya mavzusi, mavzuga oid savollar yozilgan kartochkalar, pedagogik masalalar.

Tayanch tushunchalar: o`z-o`zini tarbiyalash, o`z ustida ishlash, o`z-o`zini bilish, o`ziga baho berish, metod, vosita.

Mashg`ulot mazmuni: I. Nazariy tushunchalarni muhokama qilish

II. O`z-o`zini tarbiyalashga oid malaka va ko`nikmalar hosil qilish.

III. O`z-o`zini boshqarishga oid treninglar o`tkazish, pedagogik masalalarni echish

Mashg`ulotning borishi:

O`tgan mashg`ulot bo`yicha 5-7 minutlik takrorlash o`tkaziladi. (Savol-javob tarzida).

I. Nazariy tushunchalarni muhokama qilish.

1-vazifa. Quyidagi tushunchalarga yozma izoh bering.

«o`z-o`zini tarbiyalash»

«o`z-o`stida ishlash»

«o`z-o`zini bilish»

«o`ziga baho berish»

2-vazifa. Pedagogning o`z-o`zini tarbiyalashi va o`z-o`zini takomillashtirish usullarini yozing.

3-vazifa. Pedagogning o`z-o`zini ijodiy rivojlantirishi uchun to`siq bo`ladigan omillarni ayting.

II.O`z-o`zini tarbiyalashga oid malaka va ko`nikmalar hosil qilish.

4-vazifa. Pedagogning kasbiy faoliyati va muloqotini ijodiy tashkil qilish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqing va mezonlarni asoslab bering.

	Tavsiyalar	Mezonlar
O`qituvchi- tadqiqotchi		
Tarbiyachi- tadqiqotchi		
Metodist- tadqiqotchi		
Olim- tadqiqotchi		

III.O`z-o`zini boshqarishga oid treninglar o`tkazish, pedagogik masalalarni echish.

5-vazifa. O`z-o`zini ruhlantirish, yangi kunni boshlash bo`yicha E.Xabbarning maslahatini (13) o`qib, uni I shaxs birlikda so`zlab berishga xarakat qiling.

6-vazifa. Muvaffaqiyatga erishish uchun odamlarni qanday ilhomlantirish mumkinligi haqidagi matnni o`qing va pedagogik vaziyatga baho bering(32).

Baholash: O`ar bir vazifa yuzasidan ballar qo`yib boriladi.

4-vazifa yuzasidan talabalar kichik guruhlariga bo`linib tavsiyalar ishlab chiqadilar va mashg`ulot so`nggida o`zlari bergan mezonlarni qlaydilar. Ball bo`yicha baholanadilar.

Mashg`ulotni yakunlash. O`qituvchi tomonidan umumlashtiriladi. Kamchiliklar va yutuqlar aytiladi.

«PEDAGOGIK FAOLIYATNING BARCHA TURLARIDA IJODIY HOLAT VA RANGBARANGLIKNI TASHKIL ETISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH»

Mashg`ulotning ta'limiy maqsadi: O`quv-tarbiya jarayonida pedagogning ijodiy ishlarini bir tizimga solish, o`quvchilar bilan hamkorlikda tayyorlash mumkin bo`lgan tadbirlar tizimi haqida ma'lumot berish.

Mashg`ulotning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarda pedagogik jarayonda o`yinlardan foydalanish imkoniyati haqida tushunchalarni shakllantirish, ularning tarbiyaviy ahamiyatini anglab etishi, o`yinni tashkil etish texnikasi bilan tanishtirish.

Mashg`ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarda tasavvur va rejissyorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Mashg`ulot turi: laboratoriya

Ajratilgan vaqt: 2 soat

Mashg`ulotni jihozlanishi: mavzuga oid savollar yozilgan kartochkalar, o`yin va turli pedagogik vaziyatlar yoritilgan tarqatma materiallar, fotosuratlar maktab darsliklari.

Tayanch tushunchalar: o`yin faoliyati, o`yin shakli, o`yin elementlari, tasavvur.

Mashg`ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Talabalarni amaliy mashg`ulotning maqsadi, mazmuni, bajarishi lozim bo`lgan topshiriqlar bilan tanishtirish

II. Mashg`ulotning rejasi

1. Rejissyorlik va o`qituvchi kasblarining o`xshash va farqli tomonlarini yozishga oid guruhlararo mashq.

2. O`yinlarni tashkil etish texnikasini o`zlashtirishga oid vaziyatli kartochkalar bilan ishlash.
3. Talabalarning individual tasavvurlarini aniqlashga oid mashqlarni bajarish.
4. Tasavvurni rivojlantirishga oid mashqlar.
5. Ijodiy tasavvurni rivojlantirishga oid mashqlarni bajarish.

Mashg`ulotni tashkil etish texnologiyasi: O`qituvchi mashg`ulotning tashkiliy qismidan so`ng mashg`ulotning maqsadi, mazmuni, talabalar bajaradigan ish tartibi bilan tanishtiradi.

Dastlab o`qituvchi pedagogik jarayonda o`yinlardan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonida samarali natijalar berishi va bunday o`yinlarni tashkil qilishda o`qituvchida mahorat, tasavvur qilish va rejissyorlik qobiliyati rivojlangan bo`lishi haqida gapirib o`tadi. So`ng talabalarga kartochkalar tarqatilib, birgalikda hal etishga kirishishadi.

Mashg`ulotda bajariladigan topshiriqlar:

1 –topshiriq. Talabalar 2 guruhga bo`linadilar. 1 - guruhga rejissyorlik kasbi; 2 – guruhga o`qituvchilik kasbining shaxsiy fazilatlari va kasbiy o`xshashlik va farqlilik tomonlarini yozib chiqish aytiladi va umumiy muhokama usulida bahs yuritiladi.

2 –topshiriq. Talabalarga o`yinlarni tashkil etish texnikasini o`zlashtirish bo`yicha vaziyatli kartochkalar tarqatiladi. Talabalarning aktyorlik mahorati, o`yinni tashkil etish malakasi baholanadi.

1-kartochka.

Dars ketyapti. Bolalar charchadilar. Ularni jiddiy ish – darsdan o`yinga jalb qiling. Bolalarni o`yin shartlari bilan tanishtiring, qisqa, aniq instruktaj bering (joylarini almashtirish va v.b.); o`yin tugagach, qisqa tahlil qiling, darsni yana davom eting.

2-kartochka.

Barcha o`quvchilar zavq bilan qiziqib o`ynayaptilar. Faqat bir o`quvchi o`yinga qo`shilmayapti. Uni o`yinga tortish yo`lini toping (o`yinni o`z xohishingizga ko`ra tanlang).

3-kartochka.

Bolalarga 1 minutlik musobaqa o`tkazishni taklif qiling: kim 1 minutda ko`proq chiroyli qilib harflarni yoza oladi; 1dan boshlangan sonlarni ko`proq yoza oladi; har biri 10- sm-li iplarni bog`lash (kimning ipi uzun bo`lganini taqqoslash).

Sizning vazifangiz:

Bunday o`yinlar qaysi yoshdagi bolalar uchun qiziqarli bo`lishini aniqlash; o`yinni o`tkazish, vazifalarni tushuntirish; musobaqa natijalarini sharxlab e`lon qilish; minutning qadri haqida umumiy xulosa bilan tugatish.

4-kartochka.

Talabarning ayrimlari harakatli, ayrimlari aqliy o`yinlarni turli qiziqish bilan o`ynamoqda. Kuzatuvchi talaba 1 minut davomida o`ynayotganlarni kuzatadi va quyidagi savollarga javob beradi:

Nechta talaba harakatli o`yin, nechitasi esa aqliy o`ynashdi. Qiziqish bilan, zerikib, asabiylashib o`ynagan talabalarni aniqlash.

O`yinda kim sardor (lider) bo`ldi?

Javoblarni sharhlab aytish.

5-kartochka.

«Sonlar tartibi bilan» o`yinni o`ynash. 10 kishilik 2 guruhga bo`linib 2 qator bo`lib turadilar. Boshlovchida 1dan 10gacha bo`lgan 2 hil rangdagi 2 komplekt sonlar bor. U bu sonlarni aralashtiradi, talabalar elkasiga ilib chiqadi. Talabalar bu sonni ko`rmaydi, uning orqasida turgan talaba ko`radi.

Signaldan so`ng guruhlar tartib raqami bilan turishlari kerak. Vazifani tez va xatosiz bajargan guruh g`alaba qozongan bo`ladi.

Boshlovchi talabaga vazifa:

O`yinga qiziqtirish; vaqt va joyni aniqlash; qisqacha instruktaj berish; o`yin natijalarini baholash; sharhlash.

III.Jamoa bo`lib ijodiy ishni bajarishga qaratilgan mashq.

6-kartochka.

«O`qituvchi bilan salomlashish». O`qituvchi sinfga kiradi. Talabalar u bilan salomlashish uchun o`rnalaridan turadi. Odatda bu shovqin bilan va uyushmagan holda bajariladi. Salomlashishni qoidaga ko`ra shovqin-suronsiz, chiroyli bajarilmaguncha takrorlanadi.

IV.Talabalarning individual tasavvur xususiyatlarini aniqlash uchun mashqlar.

7-kartochka.

«Daraxt», «uy», «bolalar», «deraza» so`zlaridan barchasini qatnashtirib kim ko`p gap tuzishni taklif etish.

8-kartochka.

«Xona», «kalit», «shlyapa», «qorovul», «yomg`ir», «qayiq», «atirgul», «timsoh» so`zlar ishtirokida kichik hikoya tuzish. Natijalar talabalar tomonidan baholanadi.

9-kartochka.

A) Fantastik daraxt chizish;

B) fantastik hayvon chizish.

Ularni nomlash.

10-kartochka.

Talabalarga hiqoyaning boshlanish qismi o`qib beriladi: “Tarix o`qituvchisi Olim Boboevich sinfga kirdi. Odatdagidek bolalar turib salomlashmoqdalar. Duskada xaritalar ilingan. Birdan...” Hikoyani davom ettiring. Eng qiziqarli, tasvirga boy hikoya baholanadi.

V. Tasavvurni rivojlantirishga oid mashqlarni bajarish

11-kartochka.

«Kartina» mashqi. Butun guruh talabalari aylana bo`lib o`tiradilar. Bitta talaba qo`liga toza qog`oz olib, unda «chizilgan» kartinani tasavvurida tasvirlay boshlaydi. Boshqa talabalar qog`ozda tasvirlanayotgan rasmni “ko`rishga” harakat qiladilar. Keyin “rasm” keyingi talabaga beriladi, u ham tasavvuridagi rasmni tasvirlashni davom ettiradi. “Rasm”ni aylana bo`ylab tasvirlash davom ettiradi.

12-kartochka.

«Tovushlar» mashqi. Talabalardan biri eshitayotgan tovush (masalan, it vovullashi)ni aytadi. Bu tovushni rassom, bastakor, yozuvchi, o`qituvchi tomonidan “eshitish”ga harakat qilib ko`rish.

13-kartochka.

«Tasvirlash» mashqi. Qandaydir tasvirlar yaratish (masalan, qishloq ko`chasi; chang, tovuqlar, bolalar, yugurib ketyapti). Bu ko`chani rassom, bastakor, yozuvchi, o`qituvchi tomonidan tasvirlang

14-kartochka.

«Yil fasllari» mashqi. O`zingiz yoqtirgan faslni tasavvur qilib, uni sezishga harakat qiling. “Bahor. Qorlar erib, erlar ko`rindi” – ho`l tuproqni qo`lingizga olib, ezg`ilab ko`ring, qo`lingizdagi tuproqning sovuqligini his qiling.

“Yopishqoq barglar” – bargni ezg`ilab ko`ring, uning yopishqoqligini his qiling, hidini hidlang.

“Kuz. Qurigan barglar” – oyog`ingiz bilan bir to`da barglarni yig`ing. Barglarning ohista shitirlashini his qiling.

Mashg`ulotni baholash. Har bir topshiriq bo`yicha guruxlararo, yakka holda talabalar baholanadilar, yaxshi qatnashganlar rag`batlantiriladi.

Mashg`ulotni yakunlash. O`qituvchi tomonidan amaliy mashg`ulotga xulosa yasaladi, umumlashtiriladi. Yutuq va kamchiliklar aytiladi. Uyga vazifa beriladi.

Umumiy xulosalar

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o'zida aks ettirgan muhim yuridik hujjat bo'lib, istiqbol uchun yo'lanmadir. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amalga oshirish jarayonida o'qituvchilarning pedagogik mahorati muhim rol o'ynaydi. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida shakllanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak. Mustaqillikdan keyin ushbu muammo ko'plab olimlarning, ziyoli ahlining, hatto ota-onalar-ning diqqat-e'tiborida bo'ldi. O'qituvchilar uchun zamonaviy, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan metodik va o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratila boshlandi. Lekin bu muammo bo'yicha izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkumi, siyosiy savodxonlikni, fikr-lash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga

jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi

Bitiruv malakaviy ishni bajarish mobaynida quyidagi xulosalarga kelindi.

O'zbekiston respublikasining «ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalari amalga oshirish jarayonida o'qituvchilarning pedagogik mahorati muhim rol o'ynaydi.

Komil inson va etuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida shakllanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

Pedagogik texnikani shakllantirishda pedagogik mahorat fanining o'rni juda katta.

O'qituvchilardagi pedagogik texnikani shakllanganligining bugungi kundani holati o'rganildi.

Pedagogik texnikani shakllantirishning shakllari tavsiya etildi va samaradorligiga erishildi.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda taxlil pedagogik kuzatuv anketa so'rovlari tajriba-sinov kabi metodlari ma'ruza seminar tajriba kabi shakllari internet vositalaridan keng natijaga foydalanish orqali ko'zlagan natijaga erishildi.

Tavsiyalar

Bitiruv malakaviy ish natijalari quyidagi tavsiyalarni taqdim etishga imkon berdi:

1. Bo'lajak pedagogik texnikani shakllantirishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan foydalanishga erishish.
2. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishning mazmunini boyitish va kengaytirish.
3. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda Oliy va umumta'lim maktablari o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatish.
4. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda tajriba mashg'ulotlaridan foydalanib mikro darslar tashkil etish imkoniyatini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent; "Sharq", 1997, 20-29 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T. Sharq, 1997, 31-61 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashti- rishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli Qarori.
4. "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning davlat umum- milliy dasturi" to'g'risida Prezident Farmoni. //"Ta'lim taraqqiyoti"-2004, 3-son, 26-bet.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat va mafkura. 1- jild. - T.: O'zbekiston, 1996. - 89 bet.
6. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T. O'zbekiston, 1999.- 413 bet.
7. Karimov.I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida.-Toshkent: "O'zbekiston", 1998.-76 bet.
8. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". -Toshkent: O'zbekiston, 1997.- 315 bet.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent, „O'zbekiston“, 1999. - 48 bet.
10. Abdullavev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
11. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent. O'zbekiston, 1992. -160 b.
12. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003,- 174 b.

13. Al Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al- jome' as-Sahih. //Ishonarli to'plam. 1- kitob. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - 712 b.
14. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fanlari dokt. ilmiy dar. uchun diss. - T.: 2007,- 305 b.
15. Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. - T.: "O'qituvchi", 1993. - 123 b.
16. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. - T.: "FAN", 2007.-223 b.
17. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: //Кн. для учителя. 1987,- 190 с.
18. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество: Библиотека учителя и воспитателя. - М.: Педагогика, 1990.- 144 с.
19. Karimov I.I. O'qituvchi, ustoz, murabbiy...: Talabalar va yosh o'qituvchilar uchun. Risola. - Qo'qon DPI, 2009. - 99 b.
20. Kaykovus. Qobusnoma (Forschadan Muhammad-Rizo Ogahiy tarjimasi):
21. S.Dolimov. - T., O'qituvchi, 2006. - 208 b.
22. Komilov N. Tasawuf yoki komil inson axloqi. 1 qism. - Toshkent, Yozuvchi, 1996.-216 b,
23. Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. - 185 b.
24. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlin vit yoshlar tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1996. - 192 b.
25. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonidu nutq liioliyuti I : O'qituvchi, 1995.
26. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar 15-tom • I'Tan" 2005.
27. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. G.: Istiqlol, 2003. - 176 b.
28. Nishonova N.U. Shaxs madaniyatini shakllantirishning gumanitar texnologiyalari (Monografiya). I :'Tan" 2008. 135 b.

29. Nishonova N.U., Rizqulova k. Sog'lom turmush tarzi madaniyatini. (Metodik qo'llanma). – “Ta’lim va texnologiya”, 2008. - 141 b.
30. Niyozov G., Ahmedova M.G.. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulot hit i - Toshkent, “Tafakkur bo'stoni”. 2011.- 142 b.
31. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. Saylanma. -T.: O'qituvchi 1997.
32. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahort G.: “Iqtisod-moliya”. 2009. 240 b.
33. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. - T.: “Dono humo” ilmiy markazi, 2002. - 78 b.
34. Педагогика. (Под ред. И.И. Ибрагимовича).- М.: Педагогического общества России, 2003 - 608 с.
35. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X. Toxtaxodjayeva va boshqalar) -T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007,- 380 b.
36. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari.- T.: 2001.

MUNDARIJA

KIRISH

I.BOB PEDAGOGIK MAHORAT FANINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

- | | | |
|------|---|-------|
| 1.1. | Pedagogik mahorat fani va uning fan sifatida vujudga kelishi | 8-14 |
| 1.2. | Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish omillari. | 14-25 |

II.BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK TEXNIKANING SHAKL VA USULLARI

- | | | |
|------|--|-------|
| 2.1. | Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik mahorat fanini o'qitish shakllari | 25-39 |
| 2.2. | Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirishda tajriba mashg'ulotlarining o'rni (pedagogik mahorat fani misolida) | 39-64 |
| | UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR. | 64-65 |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR | 65-66 |